



TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMIY-METODIK
MARKAZI

4K KO'NIKMALARINI BAHOLASH RUBRIKALARI

(uslubiy qo'llanma)



Toshkent – 2024

UO'K 373.015.3:159.955.6

KBK 74.20

T 318

Ushbu qo'llanmada 4K rubrikalari orqali o'quvchilarni baholashda e'tibor qaratish zarur bo'lgan jihatlar ochib beriladi. 4K rubrikalaridan foydalanishning ahamiyatli taraflari hamda o'quvchini ma'lum vaqt kuzatish natijasida to'plangan ma'lumotlardan uning muvaffaqiyatga erishishi uchun yo'l ko'rsatish, tahlil qilish orqali esa manfaatdor tomonlar bilan qayta aloqa mexanizmini takomillashtirishga xizmat qiladi. Formativ baholashda dunyo hamjamiyatida ommalashgan 4K rubrikalarini solishtirish va tahlil qilish orqali maktab ta'limi auditoriyasiga foydali ma'lumotlarni yetkazish maqsad qilingan.

Hozirgi vaqtda maktab ta'limida summativ va formativ baholash tizimi joriy qilina-yotgan bir vaqtda dunyo hamjamiyati tajribasiga asoslangan umumiy o'rta ta'lim o'qituvchi xodimlariga bu baholashlarni bir-biridan ajratgan holda baholash tizimi haqida tavsiyalar va maslahatlar berish reja qilingan. Formativ baholash orqali o'quvchining rivojlanib borishini kuzatish imkonini beruvchi 4K rubrikalarining o'rni haqida ma'lumot berib o'tiladi. Mazkur rubrikalarni tayyorlashda ilmiy-ommabop rubrikalar va tadqiqotlarga murojaat qilindi, shuningdek ularga mos tavsiyaviy topshiriqlar ishlab chiqishda ham 4Kni qamrab oluvchi xalqaro tadqiqotlar va boshqa tadqiqot institutlarining tavsiyaviy topshiriqlaridan andoza olindi.

Qo'llanma umumiy o'rta ta'lim qatnashchilari, o'qituvchi-pedagoglar, mustaqil izlanuv-chilar foydalanishlari uchun mo'ljallangan.

Mualliflar:

- Sh. Egamberdiyev** – Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi yetakchi mutaxassisi.
- A. Maxmudov** – Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi boshqarma boshlig'i.
- R. Tojiboyev** – Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bo'lim boshlig'i.

Taqrizchilar:

- F. M. Zakirova** – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Axborot ta'lim texnologiyalari kafedrası professori, p.f.d.
- X. A. Ro'zmetova** – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Umumiy pedagogika kafedrası dotsenti, ped.f.n.
- M. D. Pardayeva** – Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi boshqarma boshlig'i, ped.f.f.d. dotsent.

O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etildi (2024-yil 6-avgust, navbatdan tashqari yig'ilish bayonnomasi)

ISBN 978-9910-09-001-1

© Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi

MUNDARIJA

| | |
|---|----|
| Kirish..... | 5 |
| Affektiv, kognitiv va psixomotor ko'nikmalarni formativ baholash..... | 6 |
| Ta'lim berish jarayonida 4Kni tushunish va baholash..... | 8 |
| Kollaboratsiya: shaxslararo ko'nikmalarni rivojlantirish | 13 |
| Kommunikatsiya: samarali muloqot qilish | 16 |
| Kreativ fikrlash va uning kompetensiyaviy modeli..... | 18 |
| Tanqidiy fikrlash: divergent va konvergent fikrlash..... | 24 |
| Muammolarni hal etishda kreativ va kritik fikrlash..... | 27 |
| Formativ baholashda 4K rubrikalaridan foydalanish..... | 35 |
| 4K kompetensiyalarini baholash uchun namunaviy topshiriqlar..... | 62 |
| Foydalanilgan adabiyotlar..... | 73 |

SO'Z BOSHI



Risyukova Yuliya Vasilyevna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Qadrli o'qituvchilar!

Pedagogika – insoniyat tamaddunining asosidir. Nafaqat ta'limning, balki butun jamiyatning kelajagi ko'p jihatdan o'qituvchining bilim darajasi va harakatchanligiga bog'liq. Sifatli ta'limni ta'minlash yangi paradigmani qabul qilish uchun zarur shart-sharoit yaratadi, bu esa o'z navbatida o'qituvchi shaxsining o'zgarishi va kasbiy o'sishi zarurligini belgilaydi.

O'qituvchi ta'lim jarayonining o'tmishda ham, hozir ham asosiy shaxsi va kela-jakda ham shunday bo'ladi. Uning kasbiy tayyorgarlik darajasi va shaxsiy fazilat-lari ta'limni modernizatsiya qilish muvaffaqiyati, yangi texnologiyalar va metodlardan foydalanish samaradorligining ustuvor omili bo'lib qolmoqda. Bunday sharoitda o'qituvchilarga ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda ko'maklashuvchi zamo-naviy interfaol usullardan foydalanishning roli ortib bormoqda. Zamonaviy ta'lim paradigmasi o'qituvchi oldiga turli xil vazifalarni qo'yadi – ular nafaqat bilim berish bilan cheklanishlari, balki o'qituvchilarning olgan bilimlarini hayotda qo'llash uchun zaruriy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishlari lozim.

Samarali va qiziqarli metodologiyani yaratishga misollardan biri yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan "4K" modelidir: tanqidiy va kreativ fikrlash, kommunikatsiya va kollaboratsiya.

Tanqidiy fikrlash umumiy ma'lumotlardan zaruriysini, ikkilamchi masalalar-dan ustuvorini, yolg'ondan haqiqatni ajratishga yordam beradi.

Kreativlik turli muammolarga innovatsion yechim topishdir. Biz kundalik ha-yotimizda odatiy tarzda hal etilmaydigan topshiriqlarga tez-tez duch kelishimizni inobatga oladigan bo'lsak, ishda yoki maktabda bu ko'nikma qo'l keladi.

Kommunikatsiya jamiyat bilan: oila, hamkasblar va do'stlar bilan muloqot qi-lish mahoratidir.

Kollaboratsiya jamoada birgalikda ishlash va ajoyib natijalarga erishish imko-niyatidir.

O'quv jarayonida yumshoq ko'nikmalarni nafaqat shakllantirish, balki natijani baholay olish ham muhim ahamiyatga ega.

Ushbu metodik qo'llanmada "4K" ko'nikmalarini baholash bo'yicha tavsiyalar mavjud. U sizning kasbiy rivojlanishingiz uchun foydali vosita bo'ladi, deb umid qi-laman.

KIRISH

O'quvchilarni maktab va maktabdan tashqari muhitda qanchalik ta'lim olib rivojlanib borayotganliklarini aniqlash uchun formativ baholash tizimi zarur bo'ladi. Ushbu tizim orqali baholash jarayonidagi uzviylikni ta'minlash, bolaning yaxlit rivojini kuzatib borish, oqsayotgan sohalari bo'yicha qo'shimcha maslahatlar berish yoki o'zlashtirish sohasiga qarab yo'naltirish mumkin. Shu jihatlarni inobatga oladigan bo'lsak, formativ baholashda 4K ko'nikmalarini – “Kommunikatsiya”, “Kollaboratsiya” va “Kreativ fikrlash”, “Kritik fikrlash”, baholash juda muhim hisoblanadi.

Odatda XXI asr ko'nikmalari 4K deb atalishiga ko'p bora guvoh bo'lganmiz. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida 4K kommunikatsiya, kollaboratsiya, kreativ fikrlash va kritik fikrlashdan iboratligi hech kimga sir emas. Bu ko'nikmalar o'quvchilarning ta'lim olish jarayonini baholashda, shuningdek, maktabda va undan tashqari muhitlarda muvaffaqiyatga erishish ko'rsatkichlarini kuzatib borishda asqatadigan, muhim formativ baholash instrumenti hisoblanadi. O'quvchilardagi ushbu 4K ko'nikmalarini rivojlantirish va baholash uchun jahon pedagogikasida bir qancha ilmiy tadqiqotlar asosida tavsiyaviy rubrikalar ishlab chiqilgan bo'lib, ta'limning barcha bosqichlarini qamrab oladi.

Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o'qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, hozirgi kunda ilg'or xorijiy tajribalar asosida darsliklar yangidan “4K” modeli asosida tayyorlanmoqda¹.

Baholash jarayonida 4K rubrikalaridan foydalanishning zarurati shundaki, hozirgi davrda alohida e'tibor qaratilayotgan “*Holistic development*”, ya'ni yaxlit rivojlanishni baholashda o'quvchining barcha qirralarini ko'rish imkonini beradi. Buning natijasida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, o'z fikrini erkin bayon eta olishiga ko'proq ahamiyat beriladi. Bu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, to'rtta asosiy kompetensiyani o'z ichiga oladi.

¹ U. Jabborov, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/barchasi-maktab-partasidan-boshlanadi-boshlangich-sinfda-4k-modeli-zamonaviy-talimga-innovation-yondashuv>.

Mazkur uslubiy qo'llanmada, 4K modeli haqida ma'lumot olish bilan bir qatorda xalqaro tajriba asosida yaratilgan rubrikalar bilan tanishish mumkin. Shuni ta'kidlash joizki mazkur rubrikalar biror maxsus fan uchun ishlab chiqilmagan, aksincha, foydalanuvchilar unda berilgan namunaviy topshiriqlarni o'z fan mavzusi doirasida talqin qilishlari, o'zgartirishlari va baholashda rubrikalardan mos ravishda foydalanishlari mumkin.

AFFEKTIV, KOGNITIV VA PSIXOMOTOR KO'NIKMALARNI FORMATIV BAHOLASH

O'quvchilarning o'rganish va o'zlashtirish yo'llari turlicha bo'lganligi sababidan o'qituvchilar har bir o'quvchining o'ziga xos kuchli va kuchsiz tomonlarini inobatga olgan holda o'qitish usullarini tanlashiga to'g'ri keladi. Ushbu tushunchalar ta'limda yaxlit yondashuvni rag'batlantirish orqali ta'lim olish sohasiga ta'sir ko'rsatdi. Ta'lim olish sohalari o'quvchilarning axborotni qayta ishlash va ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim hisoblanadi. Shunga asoslangan holda, bizning ta'lim tizimimizga yaqinda kirib kelayotgan formativ baholashda bu soha va ko'nikmalarga alohida e'tibor qaratgan holda baholash o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

O'rganish sohalari 1956-yilda ta'lim psixologi doktor Benjamin Bloom tomonidan yaratilgan o'quv maqsadlari jamlanmasi hisoblanadi. Ular uchta ta'lim olish sohasini o'z ichiga oladi va ularning har biri kutilgan natijalarga erishish uchun turli xil ta'lim uslublarini talab qiladi. Har bir soha turli nuqtai nazarlardan foydalangan holda muammolarni hal qilish, axborotni qayta ishlash va o'z ko'nikmalarni shakllantirishda o'quvchilarni jalb qilish uchun mo'ljallangan o'ziga xos xususiyatlar va maqsadlarga ega.

Har bir ta'lim olish sohasi o'quvchilar o'zlari tanlagan kasbni egallashlari mumkin bo'lgan real vaziyatlarni qamrab oluvchi afzalliklarga ega. Misol uchun, psixomotor sohada ustun bo'lgan o'quvchi me'mor yoki jarroh sifatida yaxshi ishlashi mumkin. Sohalar ko'pincha bir-biriga mos keladi va bir birini to'ldiradi.

O'rganishning uchta sohasidan dastlabkisi bu – **kognitiv ko'nikma**. Kognitiv kompetensiya psixolog Benjamin Bloom va uning hamkasblari tomonidan rivojlantirilgan oltita intellektual qobiliyatga asoslanadi. Ushbu konsepsiya "**Blum taksonomiyasi**" deb nomlanadi. Blum taksonomiyasi amalda o'ziga xos navigator bo'lib xizmat qiladi, uning yordamida o'qituvchilar darslarni

samarali tashkil qilishlari, ta'lim olishning har bir bosqichi uchun zarur vazifalar va baholash vositalarini qo'llashlari bilan bir qatorda, o'quvchidan zaruriy ta'lim natijalarini kutishlari mumkin. Har bir kompetensiya o'quvchilar dars jarayonida o'rganganlarini qanday qo'llashlari mumkinligini tavsiflovchi faol fe'llar orqali ifodalanadi va o'qituvchi uchun o'quvchining topshiriqlarga bergan javobini ta'lim natijalariga aylantiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Blum taksonomiyasi quyidagi intellektual ko'nikmalarni o'z ichiga oladi:

Eslab qolish – avval o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish yoki tan olish hisoblanib, bunda o'quvchi ma'lumotlarni yozishi, ro'yxat tuzishi yoki nomlashi mumkin.

Tushunish – avval o'rganilgan materialga asoslangan holda ma'lumotni tushunish yoki sharhlash. Ushbu jarayonda o'quvchi berilgan ma'lumotlarni tushuntirish, umumlashtirish va tasvirlash orqali tushunganligini ifoda etishi mumkin.

Qo'llash – topshiriq yoki muammoni mustaqil ravishda hal qilish bosqichi, o'quvchi vaziyat uchun mos ma'lumotlarni tanlashi va ulardan foydalanishi mumkin bo'lgan bosqich.

Tahlil qilish – xulosa qilish uchun berilgan savol va taxminlarni tushunish yoki bekor qilish jarayoni. Bunda o'quvchidan ma'lumotlarni taqqoslashi, qarama-qarshi qo'yishi va tahlil qilishi kutiladi.

Baholash – belgilangan talab va mezonlar asosida manba yoki ma'lumotni baholash. O'quvchi ma'lumotni tekshirishi, solishtirishi, muhokama qilishi yoki tanqid qilishi mumkin bo'lgan jarayon hisoblanadi.

Yaratish – ma'lumotlarga asoslangan holda yangi g'oya yoki reja yaratish. Bu bosqichda o'quvchidan yaratish, loyihalash, ixtiro qilish va rivojlantirish kabilar kutiladi.

Blum taksonomiyasini istalgan fan kesimida o'quvchining yosh ko'rsatkichlaridan kelib chiqib qo'llash mumkin. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun dastlabki uch *eslab qolish*, *tushunish* va *qo'llash* bosqichiga doir topshiriqlar berilishi hamda ta'lim natijasini kutish tavsiya etiladi. Tayanch va o'rta ta'lim ishtirokchilari uchun esa o'z navbatida yuqori darajaga mos topshiriqlar hamda ta'lim natijalarini kutish manfaatlidir.



1-rasm: Eslab qolish.

O'quvchi bosh qahramonning o'zi, uning uyi qanday ko'rinishda ekanligi kabi tafsilotlarni aytib bera oladi.

O'quvchi syujetni umumlashtiradi yoki o'qiganlarini qayta aytib bera oladi.




2-rasm: Tushunish.



3-rasm: Qo'llash.

Hikoya qahramonining u yoki bu harakatlariga nima sabab bo'lganligi haqida tushuntirish beradi.

O'quvchi hikoya qahramonining voqealarga munosabati va o'zining ehtimoliy reaksiyasini taqqoslaydi.



4-rasm: Tahlil qilish.



5-rasm: Baholash.

Hikoyada ta'riflangan voqea-hodisaning ishonchligini, haqiqatan ham sodir bo'lishi yoki bo'lmasligini baholaydi.

Hikoya asosida o'quvchi mavzuga oid she'r, hikoya yoki qo'shiq yaratadi.



6-rasm: Yaratish.

Blum taksonomiyasida ifodalangan oltita intellektual qobiliyat darajalarini o'qish savodxonligi darsi uchun yaratilgan quyidagi soddalashtirilgan misol orqali ko'rib chiqishimiz mumkin. Masalan, o'quvchilar adabiyot darsida bir hikoya yoki ertakni o'qishdi. Blum taksonomiyasiga asosan o'quvchilardan o'qigan hikoyalari bo'yicha kutilayotgan natija va aniq maqsadlar quyidagicha ko'rinishga ega bo'lishi mumkin:

Navbatdagi o'rganish sohasi bu – **affektiv ko'nikmalar**. Affektiv soha tegishli hissiy javoblarni rivojlantiruvchi ko'nikmalarni ifodalaydi. Ushbu sohada o'quvchilar o'zlarining his-tuyg'ulari, qarashlari va qadriyatlarini tushunadilar va rivojlantiradilar. Kognitiv soha singari, oddiydan murakkabgacha tasniflangan affektiv ko'nikmaning beshta sohasi mavjud bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Qabul qilish – hissiyotlar va his-tuyg'ularni passiv anglashni o'z ichiga oladi va o'quvchi keyingi bosqichlarda o'rganish uchun ushbu dastlabki darajada muvaffaqiyat qozonishi kerak. Misol uchun, bu bosqichdagi o'quvchi boshqa birovning nutqini tugatmaguncha gapirishni kutadi, zarur ma'lumotlarni so'rashi, tanlashi, aniqlashtirishi va ulardan foydalanishi mumkin.

Javob berish – o'quvchi muayyan jarayonda qatnashadi va unga munosabat bildirish orqali faol ishtirok etadi. Ta'lim natijalariga javob berishda muvofiqlikni, javob berishga tayyorlikni yoki javob berishdan qoniqishni (motivatsiya) ta'kidlashi mumkin. Masalan, sinf muhokamalarida qatnashadi va taqdimot qilishi, tengdoshlariga yordamlashishi yoki o'qigan kitobi bo'yicha savollarga javob berishi mumkin.

Qadrlash – insonning ma'lum bir hodisaga yoki xatti-harakatga qo'shadigan hissiy yoki qadri. Qadrlash ma'lum qiymatlar to'plamini o'zlashtirishga asoslanadi va qadrlash ishoralari o'quvchining ochiq xatti-harakatlarida aniq namoyon bo'ladi. Misol uchun, o'quvchi muammolarni hal qilish qobiliyatini ko'rsatishi, biror faoliyat rejasini taklif qilib, unga mas'uliyat bilan amal qilishi yoki biror ijtimoiy mavzu haqida esse yozishi, shu orqali o'z pozitsiyasini himoya qilishi mumkin.

Tashkil etish – turli qiymatlarni qarama-qarshi qo'yish, ular o'rtasidagi nomutanosibliklarni hal qilish va ustuvorliklarga ajratish. Asosiy e'tibor qiymatlarni taqqoslash, bog'lash va tahlil qilishga qaratilgan bo'ladi. O'quvchi erkinlik va mas'uliyat o'rtasida muvozanat zarurligidan xabardor bo'ladi va o'zining xatti-harakatlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Muammo-

larni hal qilishda tizimli rejalar tuzadi. Maktab, oila va o'z ehtiyojlarini qondirish uchun vaqtni samarali tarzda taqsimlaydi. Masalan, a'lochilar ro'yxatiga kirmoqchi bo'lgan o'quvchi do'stlari bilan kinoga borishdan ko'ra, imtihonga tayyorlanish uchun o'qib, o'rganishi kerakligini tushunadi.

Tasniflash (Xarakterlash) – xatti-harakatlarini boshqaradigan qadr-qiymat tizimi bo'lib, o'quvchi o'zi ishlab chiqqan va qabul qilgan qiymatlariga muvofiq harakat qiladi. Ta'lim maqsadlari o'quvchining umumiy moslashuv modellari (shaxsiy, ijtimoiy, hissiy) bilan bog'liq bo'ladi. Misol uchun, mustaqil ishlaganda o'ziga ishonganligini ko'rsatadi, guruh faoliyatida hamkorlik qiladi (jamoaviy ishlarni ko'rsatadi), muammoni hal qilishda obyektiv yondashadi, qarorlarni qayta ko'rib chiqadi va yangi dalillar asosida xatti-harakatlarini o'zgartiradi, odamlarni tashqi ko'rinishi uchun emas, balki kimligi uchun qadrlaydi. O'quvchi aldash odobdan emasligini tan oladi, garchi do'sti javoblarni ko'chirib olishini taklif qilsa ham, qiyin topshiriqni mustaqil ravishda bajarishga harakat qiladi.

Nihoyat, so'nggi o'rganish sohasi bu – **psixomotor ko'nikma**. Bu sohani Blum aniqlagan bo'lsa-da, asli kasbi o'qituvchilik bo'lgan Elizabet Simpson 1970-yillarda oddiydan murakkabgacha bo'lgan tartibda kengaytirgan. Psixomotor soha qo'l-ko'zni muvofiqlashtirish va motor ko'nikmalarini qo'llash kabi jismoniy ko'nikmalarga qaratilgan. Psixomotor qobiliyatlar odamlarga kundalik hayotda va ishda jismoniy vazifalarni bajarishga yordam beradi. Ushbu soha quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Idrok etish – motorik faoliyatni boshqarish uchun sezgi signallardan foydalanish qobiliyati. Misol uchun, o'quvchi gitarani sozlashdan oldin uning torlaridan chiqqan tovushlarni tinglaydi va sozlaydi, uskunaning noto'g'ri ishlashini ko'rsatadigan tovushlarni tanib oladi, to'p tashlanganidan so'ng qayerga tushishini taxmin qiladi va keyin to'g'ri joyga o'tadi, ovqatning hidi va ta'miga qarab olov haroratini to'g'rilaydi.

Joylashtirish – aqliy, jismoniy va hissiy ko'nikmalarni o'z ichiga oluvchi to'plam bo'lib, insonning turli vaziyatlarga munosabatini oldindan belgilab beruvchi fikrlash doirasi. Bunda, o'quvchilar qiyinchiliklarga qarshi turishga va ularni hal qilishga tayyor bo'lishadi. Misol uchun, o'quvchi musiqa boshida cholg'u asbobini chalishga tayyor bo'ladi, vazifani bajarish uchun zaruriy qismlarni yig'ishga ishtiyoqini ko'rsatadi, ishlab chiqarish jarayonidagi bosqichlar ketma-ketligini biladi va unga amal qiladi. Shuningdek, o'quvc-

hi o'z qobiliyatlari va cheklovlarini tan oladi hamda o'z bahosini yaxshilash uchun keyingi imtihonga yaxshiroq tayyorlanadi.

Yo'naltirilgan javob – o'quvchilar ko'pincha biror tadqiqot, xato yoki ko'rsatmalarga rioya qilish orqali murakkab ko'nikmalarni o'rganishni boshlaydilar. Misol uchun, o'quvchi kimyoviy moddaning ma'lum hajmini o'lchashning turli usullari bilan tajriba o'tkazadi, ko'rsatilgandek matematik tenglamani bajaradi, biror modelni loyihalash bo'yicha eskiz chizadi yoki mavzuga oid videoni tomosha qilish orqali oddiy sxema nusxasini qurishni o'rganadi.

Mexanizm – o'quvchilar ko'pincha amaliyot orqali murakkab vazifalarni bajarishda asosiy malakani rivojlantiradilar. Misol uchun, 60 graduslik burchakni to'g'ri chizadi, vaqtning 70 foizini aniq ko'rsatadi, shaxsiy kompyuterdan mustaqil foydalanadi, suv oqayotgan kranni ta'mirlay oladi yoki o'quvchi bir necha haftalik pianino mashg'ulotdan so'ng o'qituvchisi tomonidan vazifa qilib berilgan kuyni o'ziga ishongan holda ijro eta olishi mumkin.

Murakkab ochiq javob – o'quvchilar yuqori malakali topshiriqni bajarishni o'rganadilar. Bunda, malakalilik, tez va yuqori darajada aniqlik bilan harakat qilish va minimal energiya talab qilinadi. Misol uchun, o'quvchi kuyni pianino tugmachalariga qaramasdan ijro eta oladi, kompyuterni tez va aniq boshqaradi.

Moslashish – o'quvchilar o'zlarining ko'nikmalarini rivojlantiradilar va ularni muayyan talablarga javob berish uchun o'zgartirishlari mumkin. Misol uchun, kutilmagan tajribalarga samarali javob beradi, o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun ko'rsatmalarni o'zgartiradi, oshpazlikka o'qiyotgan o'quvchi o'z retseptini xo'randaning ovqatlanish cheklovlariga mos ravishda qanday o'zgartirishni biladi.

O'ziga xoslik – muayyan vaziyat yoki muayyan muammoga mos keladigan yangi yondashuvlarni yaratish. O'quv natijalari yuqori darajada rivojlangan ko'nikmalarga asoslangan ijodkorlikni ta'kidlaydi. O'quvchilar yondashuvda o'ziga xoslikka ega bo'lganda o'rganilgan tamoyillardan foydalangan holda yangi ko'nikmani rivojlantirishni o'rganadilar. Misol uchun, topshiriqni bajarishning yanada samarali usulini loyihalaydi, yangi nazariya yaratadi yoki raqs darslarini yaxshi o'rgangan o'quvchi yangi qo'shiqqa xos raqsni o'zi yaratadi².

² <https://www.indeed.com/career-advice/career-development/domains-of-learning>

KOLLABORATSIYA: shaxslararo ko'nikmalarni rivojlantirish



Kollaboratsiya – bu maqsadga erishish uchun birgalikda ishlash va bir-birini to'ldiradigan tajriba hamda malakalarni birlashtirish amaliyoti. Dunyo tobora rivojlangani sayin, hamkorlik qilish mahorati o'quvchilar uchun ham, jamiyat a'zolari uchun ham muhim bo'lib bormoqda³.

Kollaboratsiya kompetensiyasi o'quvchilarning butun umri davomida odamlar bilan ishlashi, kirishib keta olishi, muzokaralar olib borishlari uchun asqatadi. Maktablarda o'quvchilarga hamkorlik va jamoada ishlashni baholashga doir topshiriqlar berish kelajakda muammoni qanday hal qilish, yechimlarni taklif qilish va eng ma'qul reja bo'yicha harakat yo'nalishini tanlashni tushunishga yordam beradi.

Hozirgi kunga qadar dunyo hamjamiyatidagi ta'lim tizimida sifatni baholash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazadigan tashkilotlar, bir qancha ta'lim institutlari, mustaqil izlanish olib boradigan tadqiqotchilar formativ baholashda 4Kning o'rni va uni qanday baholash bo'yicha izlanishlar, tadqiqotlar

³ What are the 4 C's of 21st-century learning skills? | Torrens University.

olib borib, ta'lim siyosatini belgilovchi mas'ullarga xulosalar taqdim etib kelmoqda.

Samarali hamkorlik borasida Stiv Voznyak va Stiv Jobsning birinchi shaxsiy kompyuterni yaratish jarayonidagi hamkorligini misol qilib keltirish mumkin. Agar ular o'z vaqtida hamkorlik qilmaganlarida edi, hozirda dunyoni bu qadar rivojlangandek tasavvur qilish qiyin bo'lardi. Shu birgina misol orqali hamkorlik qilish qanchalik muhim va zavqli jarayon ekanligini anglash qiyin emas.

Shuningdek, kollaboratsiyada boshqalar bilan ishlayotganda hamkorlikni kuchaytirish uchun nimalar qilish kerakligini aniqlashtirish va o'zini qanday tutishini bilish, albatta, muhim hisoblanadi.

O'quvchilarga dars davomida hamkorlik qilishga undash va uni baholash orqali kelajakda o'z jamoasi, hamkasblari, biznes hamkorlari va mijozlari bilan hamkorlik qilish usullarini yaxshilash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar va xatti-harakatlarni rivojlantirishga yordam berish mumkin. Buning uchun dastlab turli xil hamkorlik texnikalari, hamkorlikdagi to'siqlar va ularni yengishning turli usullarini o'z ichiga olgan bir qator ko'nikmalarni o'rgatish lozim. Shuningdek, kollaboratsiyaning tobora ommalashib borayotgan shakli - virtual hamkorlikda qanday ustunlikka erishish haqida tushunchani shakllantirish lozim.


O'quvchilarda hamkorlik qilish ko'nikmasini rivojlantirish uchun ba'zi tavsiya va misollarni keltirib o'tamiz.

Dastlab, qanday emas, nima uchun, degan savolni so'rashdan boshlashimiz kerak. Nega biz hamkorlik qilishimiz kerak? Bu savolga javob berish, hamkorlik qilish haqidagi ta'rifdan boshlanishi lozim. Odamlar hamkorlik qilganda, ular ko'pincha yolg'iz ishlagandan ko'ra ko'proq natijaga erishadilar. Boshqacha qilib aytganda, butun qismlar yig'indisidan kattaroq bo'lishi zarur. Hamkorlik umumiy maqsad sari birgalikda ishlash harakatidir va u muvaffaqiyatli yakunlansa, natija $1+1=3$ bo'lishi mumkin. Masalan, Mari Kyuri va Piyer Kyuri jamoasi misolida dunyoga mashhur kashfiyot e'lon qilingani, shaxslar o'rtasidagi hamkorlikning namunalari hisoblanadi. Ushbu misollarda odamlar o'zlarining shaxsiy imkoniyatlaridan ustunroq bo'lishdi, chunki hamkorlik ularga o'z fikrlarini erkin ifodalash va umumiy maqsad sari birgalikda borish imkonini berdi.

“Kimki boshqalarning manfaatini ta’minlashni xohlasa, o’zinikini ta’minlash uchun allaqachon uzoq yo’lni bosib o’tgan”, degan edi xitoylik o’qituvchi, muharrir, siyosatchi va faylasuf Konfutsiy. Ushbu iqtibosning hamkorlikka qanday aloqasi bor? Boshqalarning manfaatini ta’minlash yoki boshqa birov-larning farovonligini ko’rish ularning muvaffaqiyatiga yordam berishni de-makdir. Bu esa, dastlab o’z manfaatingizni ta’minlash uchun yordam so’rash va olish imkoniyatiga ega bo’lish kerakligini anglatadi. Buni amalga oshirish-ning bir usuli, boshqalar yordam so’raganda yordam berishdir. Hamkorlik – bu yordam beradigan va yordam oluvchi ikki tomonning o’zaro faoliyati.

Bolalar bog’chasining dastlabki kunlaridanoq bolalar hamkorlikning muhimligini o’rganadilar, bu hamkorlik tushunchasi uchun asos hisoblanadi, ya’ni ikki yoki undan ortiq kishi umumiy maqsad sari birgalikda harakat qi-ladi. Yaxshi hamkorlik eshitish va qarorlar qabul qilish uchun ishonch ham-da hurmatni talab qiladi. An’anaga ko’ra, o’qituvchilar ta’lim strategiyalariga asosan hamkorlikni targ’ib qiladilar, masalan, juft bo’lib ishlash. O’qituvchi-lar kichik guruhlarda ishlashni dars mashg’ulotlariga aylantiradilar, shunda o’quvchilar jamoa tuzish ko’nikmalarini o’rganadilar va mashq qiladilar.

KOMMUNIKATSIYA: samarali muloqot qilish



Kommunikatsiya – o‘zaro tushunishga erishishning ikki tomonlama jarayoni, unda ishtirokchilar nafaqat ma‘lumot, yangiliklar, g‘oyalar va his-tuyg‘ularni almashadilar (kodlash-dekodlash), balki yaratishadi va mazmun almashadilar.

Kommunikatsiya har doim muhim bo‘lib kelgan, ammo XXI asrda fikrlarni aniq ifodalash, yetkazish, izchil ko‘rsatmalar berish va nutq orqali boshqalarni rag‘batlantirish qobiliyati tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Muloqot uchun hozirgi va rivojlanayotgan texnologiyalardan qanday foydalanishni o‘rganish professional va shaxsiy muvaffaqiyat uchun juda muhimdir⁴.

Ushbu kompetensiyani baholash uchun o‘quvchilardan boshqalar bilan ijobiy munosabatlar o‘rnatish va hamkorlikda o‘rganish, interaktiv va samarali muloqot qilish, o‘z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshni tinglash va tushunish, ma‘lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanish talab etiladi.

XXI asr ko‘nikmalarini ilg‘or texnologiyalardan foydalanish qobiliyatisiz

⁴ What are the 4 C’s of 21st-century learning skills? | Torrens University


tasavvur qilish qiyin, albatta. Shu o‘rinda muloqot qilish kompetensiyasining texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha *sinxron* va *asinxron* muloqot usullariga ajratish hamda o‘quvchining shu qobiliyatlarini ham baholashga e‘tibor qaratish zarur. Ijtimoiy manbalardagi ta‘riflarga ko‘ra, *sinxron muloqot* – bu ikki yoki undan ortiq tomonlar o‘rtasida real vaqt rejimida amalga oshiriladigan aloqa – odamlar o‘rtasidagi interaktiv, “jonli” ma‘lumot almashinuvi. *Asinxron muloqot* – nutq ishtirokchilari darhol javob berishlari shart bo‘lmagan aloqa turi. Sinxron muloqotlar video, konferensiyalardagi qurilmalar orqali joriy vaqtda sodir bo‘ladigan, asinxron esa elektron pochta va shu kabi boshqa xabar yuborish yoki muloqot qilish mumkin bo‘lgan vositalar orqali ma‘lum vaqt o‘tgandan so‘ng muloqotni davom ettirish mumkin bo‘lgan muloqot turlari hisoblanadi.

Hamkorlikning bir qismi kuchli muloqot qobiliyatidir. Bugungi muloqot qobiliyatlari muloqotning shaxsan, yozma yoki virtual tarzda sodir bo‘lishiga qarab ko‘proq yangiliklarga ega. XXI asrda gapirish va tinglash savodxonligiga ko‘proq e‘tibor qaratilmoqda, chunki bizda bugungi kunda yanada dinamik aloqa kanallari mavjud. Hozirda dunyo ta‘lim dasturlarida o‘quvchilarning raqamli va media savodxonligini rivojlantirish maqsadida samarali muloqotchilar bo‘lish uchun ta‘lim olishmoqda⁵.

Dars jarayonida muhokamalar o‘tkazish uchun ochiq savollardan foydalanish mumkin. Shunda o‘quvchilar boshqalardan ma‘lumot, ko‘rsatma, rag‘batlantirish olishsa ham, o‘z fikrlarini ifoda etish va yetkazishni mashq qilishlari mumkin. Shu bilan birgalikda o‘quvchilarning muloqot kompetensiyasini rivojlantirish uchun formativ baholashda topshiriqlarga berilgan individual yozma javoblarni qabul qilish ham o‘quvchining yangi imkoniyatlarini ochadi. O‘quvchilar samarali tinglashni mashq qilishlari va muloqotni rivojlantirish uchun moslashuvchan bo‘lishlari talab etiladi, bu nafaqat maktab darslarida, balki oila muhitida ham muntazam sodir bo‘lishi ahamiyatli hisoblanadi.

⁵ <https://nearpod.com/blog/4cs-education/>

KREATIV FIKRLASH VA UNING KOMPETENSIYAVIY MODELI




Kreativ fikrlash – o‘quvchilarning tasavvurlarni ta’sirchan tarzda ifodalash, bilim olishga undovchi, o‘ziga xos va samarali yechim topishga yo‘naltiruvchi g‘oyalarni shakllantirish, baholash va takomillashtirish kompetensiyasi⁶.

PISA 2022 xalqaro baholash dasturi qamrov doirasida o‘quvchilarning kreativ fikrlashlarini tekshiradigan testlar uchun belgilangan kompetensiyaviy model keltirilgan. Mazkur kompetensiyaviy model o‘quvchilarning kreativ fikrlashlarini baholash maqsadida uchta jihatga ajratiladi: **turli g‘oyalarni ilgari surish, kreativ g‘oyalarni ilgari surish** hamda **g‘oyalarni baholash va takomillashtirish**. Xalqaro baholash dasturi topshiriqlarga berilgan g‘oyalarni yozma, vizual, ijtimoiy muammo yoki ilmiy hodisaga taalluqli savollarga yechim shaklida bo‘lishini talab qiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, Kreativ fikrlashni baholashning kompetensiyaviy modeli bir-biriga bog‘liq va bir-

⁶ A.Ismailov, X.Daminov, Z.Kosimova, Kreativ fikrlashni baholash. Qo‘llanma. – Toshkent, Milliy markaz, 2021-yil, 13-bet.

birini to'ldiradigan 3 ta jihat hamda 4 ta sohadan tashkil topgan (10-rasmga qarang).



10-rasm. Kreativ fikrlashning kompetensiyaviy modeli

Turli g'oyalarni ilgari surish – insonning kreativ fikrlash qobiliyatini ko'rsatib beradigan umumiy mezon bo'lib, uning qanchalik ko'p g'oyalarni ilgari surishi bilan o'lchanadi va bu ko'pincha fikran teranlik deb ataladi. Turli g'oyalarni ilgari surishda aniq bir-biridan farq qiladigan toifalar bo'yicha taklif qilingan g'oyalargina hisobga olinishi talab etiladi.

O'quvchilarning kreativ fikrlash kompetensiyasini baholashda turli g'oyalarni ilgari surish jihati ularning sohalar kesimida turlicha fikrlash qobiliyatlariga urg'u beradi: masalan, muammoga turli yechimlarni berish, hikoya shaklida turli g'oyalar berish yoki g'oyani vizual shaklda ifoda qilishning turli usullarini yaratish. Ayni shu qismga oid topshiriqlarda o'quvchilarga ochiq shakldagi ssenariy va bir-biridan farqli ikki yoki uchta javob berishga undovchi ko'rsatmalar beriladi.

Kreativ g'oyalarni ilgari surish – kreativ fikrlash biror maqsad bilan boshlanib, kutilgan natija yoki g'oya bilan yakunlanadi. Bu borada ko'nikma-

ning yangiligini baholash uchun qo'llaniladigan "o'ziga xoslik" tamoyili va tegishli boshqa shartlar o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholash uchun muhimdir. "Statistik kamyoblik" deb izohlangan mazkur tamoyil yangilik, o'ziga xoslik yoki g'ayrioddiylik sifatlariga ega bo'lib, jamiyat rioya qiladigan qoidalardan og'ishni hamda ajralib turishni anglatadi.

Kreativ fikrlashning kreativ g'oyalarni ilgari surish jihatida asosan o'quvchilarning sohalar kesimida muvofiq va o'ziga xos mulohazalarni topish qobiliyatlariga e'tibor qaratiladi. Boshqacha aytganda, o'quvchilardan boshqalarning xayoliga kelmagan, mavzuga doir, topshiriqqa tegishli bo'lgan javob topish so'raladi. Ushbu yo'nalishga oid topshiriqlarda o'quvchilarga ochiq ssenariy taqdim etiladi va batafsil ravishda bitta g'oyani ishlab chiqish so'raladi.

G'oyalarni baholash va takomillashtirish – bunday fikrlash jarayonlari g'oyalardagi kamchiliklarni bartaraf etadi va odatda yangidan boshqa g'oyalarni yaratishga ko'maklashadi yoki ijodiy natijani yaxshilash uchun birlamchi g'oyalarni qaytadan shakllantiradi. Boshqalar tomonidan berilgan g'oyalarning kamchiliklari va afzalliklarini aniqlash qobiliyati bilim hosil qilishda jamoa bo'lib ishlashning asosiy qismi hisoblanadi.

G'oyalarni baholash va takomillashtirish qismida o'quvchilarning berilgan g'oyalarning kamchiliklarini baholash qobiliyatiga va ularni bartaraf etish usullariga e'tibor qaratiladi. Bir-biriga bog'liqlik muammolarni bartaraf etish uchun o'quvchilardan o'zlarining fikrlarini takrorlash so'ralmaydi, aksincha boshqa bironing ishini o'zgartirish yoki rivojlantirish talab etiladi⁷.

Kreativ fikrlashda talab etiladigan jihatlar va savollarga javob berishning shakllarini qamrab oluvchi namunaviy misollar orqali keltirib o'tamiz. Ushbu namunamiz PISA 2018 tadqiqotida foydalanilgan savol bo'lib, ilmiy muammolarni hal qilish sohasiga oid va g'oyalar yaratishning uchala jihatini ham qamrab oladi.

11-rasmda ilmiy muammolarni hal qilish sohasiga oid turli g'oyalarni ilgari surishni so'rovchi dastlabki bosqich uchun topshiriq berilgan. Bu bosqichda o'quvchilardan standart velosipedga o'ziga xos o'zgartirish kiritish so'raladi.

⁷ A.Ismailov, X.Daminov, Z.Kosimova, Kreativ fikrlashni baholash. Qo'llanma. – Toshkent, Milliy markaz, 2021-yil, 36-40-betlar.



11-rasm. Kelajak velosipedi uchun takliflar

1-savol: *“Kelajak velosipedi”ni ko‘z oldingizga keltirishga harakat qiling. Oddiy velosiped dizaynini takomillashtirish bo‘yicha uch xil g‘oya taklif eting. Taklif etilgan g‘oyalaringiz bir-biridan farq qilsin. Har bir taklif etilgan fikr amalda qanday ishlashi va uni amalga oshirishda qanday usul yoki vositalardan foydalanishingizni tushuntiring. Sizga ushbu topshiriq uchun 5 daqiqadan ortiq vaqt sarflamasligingizni tavsiya etamiz.*

Birinchi topshiriqda o‘quvchilardan kelajakda velosipedga kiritilishi mumkin bo‘lgan o‘zgartirishning uchta innovatsion usulini ifodalash so‘raladi. Ushbu topshiriq orqali kompetensiyaviy modelning “turli g‘oyalarni ilgari surish” jihatiga oid ma‘lumotlar to‘planadi. Agar o‘quvchi tomonidan taklif etilgan g‘oyada velosipedning boshqa harakatlantiruvchi qismlarini saqlab qolgan holda unga kiritilgan uchala o‘zgartirishlar o‘ziga xosligi bilan ajralib tursa, o‘quvchi tomonidan berilgan javob varianti topshiriq shartiga nisbatan “muvofiq” deb qabul qilinadi. Taklif etilgan g‘oyalar “turlicha” bo‘lishi uchun o‘quvchilar oddiy velosipedga turlicha o‘zgartirishlar kiritishlari kerak, masalan, uning turli qismlarini almashtirish yoki texnologik yangiliklar kiritish orqali o‘zgarishlarni yozishlari talab etiladi.

12-rasmda ilmiy muammolarni hal qilish sohasiga oid, kreativ g‘oyalarni ilgari surishni talab etuvchi topshiriq berilgan. Ushbu bosqichda o‘quvchilarga yanada kreativ bo‘lish taklif etiladi. Ushbu topshiriqda “kreativ g‘oyalarni ilgari surish” jihatiga oid ma‘lumotlar to‘planadi.




12-rasm. Kelajak velosipedi uchun takliflar

2-savol: *Kelajak velosipedi avtomat ravishda harakatga keltiriladi va uning pedallaridan foydalanishga ehtiyoj bo'lmaydi. Velosiped pedalidan qayta foydalanish yoki boshqa maqsadda foydalanishning o'ziga xos usulini taklif eting. Taklif etilgan g'oya o'ziga xos va boshqa o'quvchilar u haqida o'ylab ko'rmagan bo'lishi lozim. Sizga ushbu topshiriq uchun 5 daqiqadan ortiq vaqt sarflamasligingizni tavsiya etamiz.*

Sohaning ikkinchi topshirig'ida o'quvchilardan velosipedning pedallari-dan boshqa maqsadlarda foydalanish va velosipedni avtomatik ravishda harakatga keltirish mumkin bo'lishi uchun kreativ fikr-mulohazalar taklif etishlari so'raladi. Mazkur topshiriqqa oid "muvofiq" g'oya, velosiped pedallari-dan yangicha usulda foydalanishga imkon beruvchi, tushunarli yechimdan iborat fikr bo'lishi lozim. Taklif etilgan javob variantining o'ziga xosligi o'zining noan'anaviyligi bilan ajralib turishi kerak. Ushbu topshiriq bo'yicha ilgari surilishi mumkin bo'lgan namunaviy g'oyalarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: (1) velosiped pedalidan ilmoq sifatida foydalanish (misol uchun, uni devorga o'rnatib, unga palto yoki shu kabilarni ilib qo'yish); (2) pedaldan eshik tutqichi vazifasida foydalanish; (3) ikkala pedaldan uzun ilgak sifatida foydalanish (masalan, poldan yoki yuqori javonlardan narsalarni olishda).

13-rasmda ilmiy muammolarni hal qilish sohasiga oid g'oyalarni baholash va takomillashtirishni so'rovchi so'nggi bosqich uchun topshiriq berilgan. Ushbu topshiriqda kompetensiyaviy modelning "g'oyalarni baholash va takomillashtirish" jihatiga oid ma'lumotlar to'planadi va yopiq turdagi muammolarning oddiy yechimlarini topishdan ko'ra, ochiq turdagi muammoga yechimlar topish talab etiladi.



13-rasm. Kelajak velosipedi uchun taklif

3-savol: *Do'stingiz kelajakda yaratiladigan yuqori texnologik velosipedlar qimmat bo'lishi mumkinligini aytib, ularning o'g'irlab ketilishining oldini oluvchi choralarni o'ylab topish kerakligini aytdi. U velosiped tutqichiga mahkamlanadigan moslama yordamida inson yuzini tanib olishga dasturlangan kamera o'rnatishni taklif etdi. Agar biror kim velosipeddan foydalansa, o'rnatilgan kamera velosiped egasining mobil telefoniga ma'lumotlarni jo'natadi. Do'stingizga velosiped o'g'riligining oldini olishga imkon beruvchi takomillashtirish g'oyasini taklif eting. Takomillashtirish haqidagi fikringizni quyidagi katakcha ichiga yozing.*

So'nggi topshiriqda o'quvchilardan do'sti bilan velosipedni o'g'irlab ketilishiga qarshi mulohaza taklif etishlari va do'sti tomonidan taklif etilgan g'oyani takomillashtirishlari talab etiladi. O'quvchi do'sti tomonidan taklif etilgan g'oyani baholashi, ya'ni haqiqatda bu taklif yaxshi yechim bo'la oladimi yoki yo'qmi, shuni baholashi va undan keyin takomillashtirishi lozim. Masalan, velosipedga bunday kamera o'rnatilsa, uni ko'chirib olish oson bo'ladi yoki velosipeddan yuborilgan ma'lumotlar to velosiped egasiga yetib bor-guncha, kech bo'ladi kabi mulohazalar yuritishlari kerak. Agar o'quvchi o'rtog'i tomonidan taklif etilgan g'oyaning kamchiliklarini ko'rsata olsa, uning bergan javobi topshiriqning shartiga nisbatan "muvofiq" deb qabul qilinadi⁸.

⁸ A. Ismailov, X. Daminov, Z. Kosimova, Kreativ fikrlashni baholash qo'llanma. – Toshkent, Milliy markaz, 2021-yil, 61-62-betlar.

TANQIDIY FIKRLASH: divergent va konvergent fikrlash



Tanqidiy fikrlash – muammolarga yangicha qarash va masalani “qanday qilib” va “nima uchun” degan savollar berish orqali tahlil qilishdir. Ushbu turdagi fikrlash qobiliyatlari misollari va dalillarni solishtirish, da’volarni baholash va oqilona qarorlar qabul qilish uchun ma’lumotlarni ko’rib chiqish qobiliyatini o’z ichiga oladi⁹. Tanqidiy fikrlash bizga taqdim etilgan ma’lumotlardan tashqariga chiqishga imkon beradi va buning o’rniga ma’lumot manbasini, axborot vositasini, muhokama kimga foyda keltirishi va hokazolarni ko’rib chiqadi. Bu va barcha holatlarga tahliliy yondashish bizga muammoning ildiziga kirishga va oqilona choralar ko’rishga yordam beradi¹⁰.

Qisqacha qilib aytganda, tanqidiy fikrlash kompetensiyasi kerakli ma’lumotlarni to’plash, baholash va tahlil qilish, mulohaza yuritish, tizimli fikrlash,

⁹ https://www.northsalemsschools.org/cms/lib/NY50000167/Centricity/Domain/34/030316_NSalemCreatCritRubric.pdf

¹⁰ <https://newsroom.unl.edu/announce/csmce/5344/29195>

aniq xulosalar va qarorlar qabul qilish, ma'lumotlarni tahlil va talqin qilish kabi ko'nikmalar jamlanmasi bo'lishi mumkin.

Tanqidiy fikrlashning individual omili sifatida *konvergent va divergent fikrlash* omillari mavjud. *Konvergent fikrlash* – odatda javob berishda an'anaviy va mantiqiy izlanish, eslab qolish va to'plangan ma'lumotlarga asosan qaror qabul qilish strategiyasi sifatida izohlanadi. *Divergent fikrlash* – yangi yondashuvlardan foydalanish, mavjud ma'lumotlardan kutilmagan kombinatsiya hosil qilish, g'oyalarni ilgari surish va ifoda qilish jarayonini mazmundor hamda ravon tarzda amalga oshirish kabi qobiliyatlardan foydalanib, yangicha g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyati sifatida izohlanadi¹¹.

Konvergent fikrlash odatda javob berishda an'anaviy va mantiqiy izlash, eslab qolish va to'plangan ma'lumotlarga nisbatan qaror qabul qilish strategiyasi sifatida izohlanadi. Buning aksi o'laroq, divergent fikrlash yangi yondashuvlardan foydalanish, mavjud ma'lumotlardan kutilmagan kombinatsiya hosil qilish, muloqot, g'oyalarni ilgari surish va ifoda qilish jarayonini mazmundor hamda ravon tarzda amalga oshirish qobiliyatlardan foydalanib, yangicha g'oyalarni ishlab chiqish sifatida izohlanadi.


Bundan tashqari “divergent fikrlash” hamda “konvergent fikrlash”ning maxsus usullari ham mavjud bo'lib, unda divergent fikrlash – innovatsion tarzda “qutidan tashqarida” fikrlash va konvergent fikrlash – tahlillar orqali, biror narsaga maxsus e'tibor qaratib fikrlash deb ta'riflash mumkin¹². Tanqidiy fikrlashda berilgan mavzu, muammo yoki topshiriqqa doir turli, o'ziga xos g'oyalar yaratish bilan birgalikda berilgan biror g'oya yoki fikrni baholash va uni takomillashtirish so'ralishi mumkin (15-rasmga qarang).

Misol uchun, bitta to'g'ri javobga ega bo'lgan algebraik tenglamani yechish konvergent fikrlashning, aynan o'sha to'g'ri javobga eltuvchi, tenglamani bir nechta usullar orqali yechish mumkinligini ko'rib chiqish esa divergent fikrlash namunasidir. Natijaga erishish uchun, xuddi “*Nega bunday?*” va “*Nega bunday emas?*” kabi savollarni bir vaqtda so'rab ularga yechim topishga o'xshaydi. O'quvchi ta'lim jarayonida o'z javobi yoki yechimini taqdim etayotganda ikkisidan birini tanlash orqali natijaga erishishi ham mumkin, lekin

¹¹ A.Ismailov, X.Daminov, Z.Kosimova, Kreativ fikrlashni baholash qo'llanma. – Milliy markaz, Toshkent, 2021-yil, 19-bet.

¹² https://www.north.salemschools.org/cms/lib/NY50000167/Centricity/Domain/34/030316_NSalemCreatCritRubric.pdf

bir vaqtning o'zida ham konvergent, ham divergent fikrlab, dastlab bir nechta variantlarni yaratib so'ng bitta mukammal javobni tavsiya etishi yuqori qadrlanishi lozim.



15-rasm. Konvergent va divergent fikrlash jarayoni

MUAMMOLARNI HAL ETISHDA KREATIV VA KRITIK FIKRLASH

Ta'lim jarayonida o'quvchilarga muammoni hal qilishni o'qishda yoki hayotda biror muammoga duch kelganda qanday yo'l tutishni o'rgatish asosiy maqsad hisoblanadi. Ushbu jarayonni baholash esa formativ baholash orqali amalga oshiriladi. Muammolarni hal qilish kreativ va tanqidiy fikrlashning uyg'unligini talab qiladi. Tanqidiy fikrlash muammoning yagona yechimini topishga qaratilgan, kreativ fikrlash esa turli xil g'oyalarni yaratishni o'z ichiga oladi va bir nechta ehtimoliy yechimlar orqali ko'plab noodatiy yechimlarni taklif etadi. Birgalikda ular muammolarni imkon qadar tez, oson va samarali hal qilish usullarini taqdim etadi.

Ushbu ikki turdagi fikrlash muammoni hal qilishda qo'llanilishida tanqidiy fikrlash muammoni aniqlash va tahlil qilish, so'ngra qaysi ehtimoliy yechim eng yaxshi natija berishi mumkinligini aniqlash uchun g'oyalarni baholashda faktlar va mantiqdan foydalanishni anglatadi. Ushbu usul konvergent fikrlashni qo'llaydi. Kreativ fikrlash muammoni hal qilishning ehtimoliy usullarini aqliy hujum (brainstorming) orqali kreativ g'oyalarni yaratishni anglatadi. Bu usul divergent fikrlashni qo'llaydi va ko'plab yechimlar ishlab chiqish mumkin bo'ladi.


O'quvchilar o'zlari duch kelgan muammoni uning tub mohiyatini anglagan holda noodatiy usul bilan hal qilishlari uchun dars jarayonlarida o'qituvchilar ham noodatiy usullar bilan ularga yo'nalish berib borishlari lozim.

Quyida kreativ va tanqidiy fikrlashni uyg'unlashtirgan holda muammolarga yechim topishning besh bosqichli jarayonini keltirib o'tamiz¹³.

Stiv Kovey ta'riflaganidek muammolarni hal qilishda "tashvish doirasi" va "ta'sir doirasi" da mavjud (16-rasmga qarang).

Katta doira "tashvish doirasi" insonga ta'sir etuvchi barcha muammolarni qamrab oladi va katta ehtimol bilan inson bu muammolarga ta'sir eta olmasligi mumkin. Bunga misol qilib, tirbandlik, iqtisodiy inqiroz, tashkiliy o'zgarishlarni keltirish mumkin. "Ta'sir doirasi" nisbatan kichik doira bo'lib insonning tashvish doirasida joylashadi va unga ta'sir eta oladigan, hal qila oladigan va nazorat qila oladigan barcha muammolarni o'z ichiga oladi. Koveyning ta'kidlashicha, muvaffaqiyatli odamlar o'z vaqtlari va kuchlarini


¹³ <https://www.edx.org/search?q=crwative+and+critical+thinking>



16-rasm. Insonning muammolarga ta'sir doirasi

haqiqatan ham, o'zlari o'zgartirish kirita oladigan masalalarga qaratishni afzal ko'rishadi va natijada muvaffaqiyatga erishadilar.

Muammolarni hal qilish uchun o'quvchi yoshlar foydalanishi mumkin bo'lgan besh bosqichli jarayon "Aniqlash", "Tahlil qilish", "Topish", "Tanlash" va "Joriy etish" dan iborat bo'lib, yechim topishda ikkala kompetensiya – kreativ va tanqidiy fikrlash, yechimlarni harakatga keltirishda esa ikkala kompetensiya – kollaboratsiya va kommunikatsiyani uyg'unlikda talab etadi.




Jarayonning **birinchi bosqichi** – bu aniqlash, unda o‘quvchi muammoni aniqlaydi va oydinlik kiritadi. Samarali yechim topish uchun avvalo muammoni to‘g‘ri aniqlash kerak. Bunda “Aslida muammo nimada?” deb so‘rash kifoya, biroq ko‘pchilik buni amalga oshirish uchun vaqt va kuch sarflamasdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yechim topishga kirishib ketishadi. Natijada, muammoga berilgan yechim uni hal qilmaydi va yana yangi muammo keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun yechim jarayoniga shoshilmaslik kerak.

Muammoni aniqlash uchun “Kim?”, “Qachon?”, “Qayerda?” va “Qanday?” kabi savollarga javob izlash orqali vaziyatni yaxshiroq tushunish, keyingi navbatda muammoning qisqacha tavsifini yaratish kerak bo‘ladi. Muammo bayonini yozish muammoning asosiy faktlarini birlashtirishga yordam beradi va muammoning qisqa, aniq tavsifini beradi. Muammo tavsifini yozish uchun “Kim?”, “Qachon?”, “Qayerda?” va “Qanday?” savollari asosida vaziyat haqida asosiy ma‘lumotlarni kiritish lozim.

Ikkinchi bosqich – tahlil qilish, unda nima sodir bo‘layotganini va nima uchun sodir bo‘layotganligini tekshirish lozim. Birinchi va ikkinchi bosqichda tanqidiy fikrlash talab etiladi, tanqidiy fikrlash muammoni aniqlash va tahlil qilish uchun dalillar hamda mantiqdan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Muammoni hal qilishda eng ko‘p uchraydigan xato bu muammo borligi so‘ng darhol yechimga o‘tishdir. Bunda ko‘pchilik xato qiladi, chunki ular muammoni hal qilish jarayonining boshida yechimni qo‘yishga harakat qilishadi. Ammo nima bo‘layotganini to‘liq o‘rganib, muammoni hal qilish yaxshiroq samara beradi.




Muammoni haqiqatan ham, tushunish uchun avvalo uning asl sababini topish kerak. Agar bu amalga oshirilmasa, umuman hech narsani hal qila olmaydigan yechim topish xavfi bor. Ushbu bosqichda muammo haqida ko'proq ma'lumot olishga vaqt sarflash, muammoni faqat muammoni hal qilish uchun ishlaydiganlar nuqtayi nazaridan ko'rishga harakat qilish zarur.

Muammoning asl sababini aniqlash uchun "5 nega" savolini berish va muammoning tub mohiyatigacha yetib borish mumkin. Albatta, "5 nega" muammoning asosiy sabablarini aniqlashning yagona usuli emas. Misol uchun, sabab va natija diagrammasi, Pareto diagrammasi, daraxt usulida tahlil qilish, bo'shliqlar tahlili va hokazolardan foydalanish mumkin.

Uchinchi bosqich – topish deb ataladi. Muammoni hal qilish jarayoni tanqidiy fikrlashdan kreativ fikrlashga o'tadi va muammoni hal qilishning potensial usullarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Muammolarni hal qilishdagi keng tarqalgan xato – bu faqat bitta yondashuvga e'tibor berishdir.

Muammoni hal qilishning bir nechta variantlarini topishning ajoyib usullaridan biri bu aqliy hujumdir (brainstorming), bu usul orqali ko'proq tegishli g'oyalarni yarataverish, ularning eng yaxshisini tanlashni esa keyinroqqa qoldirish mumkin. Agarda murakkab muammo yoki topshiriq berilgan bo'lsa, aqliy hujumni jamoaviy tarzda, boshqa soha va bilimlardan xabardor a'zolar bilan birgalikda amalga oshirgan ma'qul. Jamoa a'zolarining g'oyalari-ga asoslanish va hatto ularni yangi yo'nalishlarga olib chiqish yaxshi samara beradi. Ba'zan bu jarayonda eng kreativ va samarali yechimlar paydo bo'ladi. Ammo jamoada noodatiy yoki birinchi urinishda yaxshi ishlamaydigan g'oyalarni tanqid orqali rad etish, keyinchalik takomillashtirilganda muammoning



17-rasm. Yechim turlari

ayni yechimi bo'lishi kutilayotgan g'oyani chippakka chiqarishi mumkin. Shuning uchun, tanqiddan bildirilgan g'oyalarning muammo yoki topshiriqqa tegishli ekanligini tekshirishdagina foydalanish tavsiya etiladi.

To'rtinchi bosqich – tanlov bo'lib, unda eng yaxshi yechim tanlanadi. Bu bosqichda muammoni hal qilish jarayoni yana tanqidiy fikrlashga o'tadi va to'g'ri yechimni tanlashda samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar hisobga olinadi. Tanlov jarayonini uchta savolga javob berish orqali osonlashtirish mumkin. “Qanday turdagi yechimni qidirish lozim?”, “Kim qaror qabul qiladi?”, “Qaysi yechimni amalga oshirish mumkin?”

Bu savollarga javob topishda yechimni kim tanlashini aniqlash uchun boshqalar bilan hamkorlik qilish ham talab etiladi. Bu o'z navbatida muammolarni hal qilishda kollaboratsiya va kommunikatsiya kompetensiyalaridan foydalanish kerakligini anglatadi.

Mavjud muammoga beriladigan yechimlar 5 turga bo'linadi, bular: “*tuzatuvchi*” yechim – muammoning asosiy sababini tuzatadi va muammo yo'qoladi, lekin bu yechimga erishish qiyin, “*moslashuvchan*” yechim – muammoning asosiy sababini bartaraf etmaydi, ammo muammoning ta'sirini kamaytirishi mumkin, “*vaqtinchalik*” yechim – muammoga vaqtinchalik yechim taqdim etadi va vaqtdan yutish imkonini beradi, “*favqulodda*” yechim – zaxira rejasi hisoblanadi, “*profilaktik*” yechim – muammo yuzaga kelishidan oldin yaratiladi, muammoning oldini oladi va hech qachon muammo yuzaga kelmaydi (17-rasmga qarang).

Beshinchi bosqich – joriy etish bo'lib, samarali yechim tanlangandan so'ng uni qay tartibda amalga oshirish rejalashtiriladi. Yechimni amalga oshirish ikki qismdan iborat. Birinchi qism, yechim haqiqatdan ham muvaffaqiyatli ekanligini aniqlashdir. Ikkinchi qism, yechimni joriy etish rejasini tuzish hisoblanadi, unda muammoni hal qilish rejasini qanday tartibda, kim tomonidan amalga oshirilishi va qancha muddatda amalga oshirilishi ko'rib chiqiladi¹⁴.

Endi yuqorida keltirilgan muammoni hal qilishning beshta bosqichini namunaviy misol orqali ko'rib chiqamiz. Aytaylik, Alisher bosh hisobchi bo'lib ishlaydi va jamoasida yana 4 kishi bor. Ayni vaqtda ularda dekabr oyi yakuniga qadar 200 ta murojaatni ko'rib chiqib, mablag'larni egalarining hisob

¹⁴ <https://www.edx.org/search?q=crwative+and+critical+thinking>

raqamlariga o'tkazib berish vazifasi bor, joriy sana esa 15-dekabr, yil yakuniga 15 kun bor. Alisherning jamoasi kuniga 4 yoki 5 tadan hisobot yopgan taqdirda, jami 200 ta murojaatni ko'rib chiqib tugatishi mumkin. Ammo jamoa dekabr oyi oxiriga qadar yillik hisobotlarni yopishi lozim bo'lib turgan vaqtda, bir ishchining farzandi kasalligi tufayli 10 kun ishga chiqa olmasligi ma'lum bo'ldi, ustiga-ustak, korxonada rahbari qo'shimcha 200 ta murojaat hisobotini ham ko'rib chiqishni jamoaga yukladi. Ushbu vaziyatda Alisher va uning jamoasi qanday yo'l tutadi? Keling, shu vaziyatni birgalikda muammolarni hal qilishning 5 ta bosqichi orqali hal qilishga harakat qilamiz.

Dastlab, muammo yoki topshiriq bayonini yozib olamiz. Bunda "Kim?", "Qachon?", "Qayerda?" va "Qanday?" savollariga javob beruvchi bayon yaratishimiz lozim. Bayonni quyidagicha ifodalashimiz mumkin: *Alisher va uning jamoasi 15 kun muddatda 200 ta murojaatlarni ko'rib chiqib, tegishli miqdordagi mablag'larni murojaatchilarning hisob raqamlariga o'tkazishi lozim. Ammo kutilmaganda jamoaning bir a'zosi 10 kun muddatga ishga kela olmaydi va ustiga-ustak jamoaga qo'shimcha 200 ta murojaatni ko'rib chiqish ham yuklatildi. Yuklatilgan vazifani o'z vaqtida bajarish uchun qanday yechimlar taklif qilinishi mumkin?*

Topshiriq bayoni yozilgandan so'ng, ya'ni ikkinchi bosqichda, muammoni yuzaga kelish sabablari tahlil qilinadi. Bunda "Nega?" savolini so'rash orqali tahlil qilish tavsiya etilgan. 1. Nega Alisher va uning jamoasi belgilangan muddatda murojaatlarni ko'rib chiqishga ulgurmasligi mumkin? Javob – topshiriq qilib berilgan murojaatlar soni jamoa a'zolari ulgurishi mumkin bo'lgan miqdordan ko'p. 2. Nega murojaatlar soni ko'plik qilmoqda? Javob – chunki bir jamoa a'zosi ishga chiqa olmaydi. 3. Nega kamchilik bo'lib ishni muvaffaqiyatli yakunlay olishmaydi? Javob – Alisherning jamoasi odatda bu kabi muammolarga oldindan tayyorlanishmagan. Demak, tahlil natijalariga ko'ra oldindan bu kabi muammolarga tayyorgarlik ko'rilganda va xodimlarning ehtimoliy mehnat ta'tili inobatga olinganda bu kabi muammolarni bartaraf etish mumkin bo'lardi.

Navbatdagi bosqichda esa potensial yechimlarni yaratishga e'tibor qaratiladi. Bu jarayonda jamoa bilan birgalikda mazkur muammoga yechim izlashga harakat qilish va bildirilgan har bir yechim tanqid qilinmasdan, inobatga olinishi lozim. Yechimlarning haqiqatda ishlashi vaziyatga mos yechim

bo'la olishi keyinchalik muhokama qilinadi. Masalan, jamoa quyidagicha yechimlarni taklif etishi mumkin: 1. Qo'shimcha yuklatilgan vazifani bajarishga ulgurmasliklarini aytib bu topshiriqni olishni rad etish va mavjud 200 ta arizani ko'rib chiqishda davom etish. 2. Dam olish kunlarida ham jamoadan qo'shimcha ishlashni so'rash. 3. Xizmat ta'tiliga chiqishga majbur bo'lgan xodimning farzandiga enaga yollash va unga masofadan ishlashni taklif etish. 4. Ulgurgancha arizalarni ko'rib chiqish va qolganini, yangi yildan keyin ko'rish va h.k.


To'rtinchi bosqichda yechim sifatida keltirilgan variantlarning maqbuli jamoa sardori tomonidan tanlanishi lozim. Yuqorida keltirilgan ehtimoliy yechimlar orasida eng yaxshisi sifatida 3-yechim ya'ni, *“Xizmat ta'tiliga chiqishga majbur bo'lgan xodimning farzandiga enaga yollash va unga masofadan ishlashni taklif etish”* variantini tanlab olishimiz mumkin. Chunki qo'yilgan vazifaga va talabga mos yechim bo'lishi mumkin.

So'nggi bosqich – chorani amalga oshirish bosqichi bo'lib, dastlab mazkur yechim haqiqatan samarali ekanligi hamda joriy etish muddati va usullari ko'rib chiqiladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Alisher va uning jamoasi ushbu vaziyatda muammo paydo bo'lishidan oldin uni hisobga olib ehtimoliy yechim tayyorlab qo'yishi lozim edi, biroq vaziyatdan kelib chiqib xizmat ta'tilidagi xodimga masofaviy ishlashni taklif qilish va muddat tugagunga qadar murojaatlarni ko'rib chiqishga ulgurish mumkin edi.

Ikkinchi jahon urushi davrida Angliya bosh vaziri bo'lgan Uinston Cherrill aytganidek – *“Dunyo murakkabliklarga to'la, shuning uchun hatto eng yaxshi yechim ham mukammal ishlamasligi mumkin”*. Shu bois muammoni hal qilish uchun har kimning taqdim etgan yechimi farqlanishi va mutlaq hal qilish chora bo'lmasligi mumkin. Lekin o'quvchilarda muammoni hal qilish men uchun qiyinchilik tug'diradi degan fikr shakllanib ulgurishidan oldin, jamoaviy ishlab, yanada kreativ g'oyalarni ishlab chiqish hamda ularni mantiqan tahlil qilish orqali muammo, topshiriq va vaziyatga yechim topish mumkinligiga ishontirish, bu jarayonda yo'l-yo'riq ko'rsatish har bir o'qituvchining burchi hisoblanadi.

Quyidagi 4K modeliga e'tibor beradigan bo'lsak, o'quvchi dastlab bilim oladi, uni tabiat va jamiyatda sinab ko'rish uchun 4K kompetensiyalari rivojlangan bo'lishiga ehtiyoj sezadi (18-rasmga qarang). Tabiiyki, o'quvchilar olgan bilim qanchalik kengaysa, asosiysi tajriba bilan mustahkamlansa, ularning tabiatda va jamiyatda yaxshi yashash imkoniyatlari, tabiat va jamiyat qonun-qoidalariga rioya qilish, xavf-xatarlarni chetlab o'tish ko'nikmalari rivojlanib boraveradi hamda bunda bir-birini to'ldirib boruvchi to'rtinchi kompetensiya umrbod hamroh bo'ladi.



18-rasm. 4K modeli

FORMATIV BAHOLASHDA 4K RUBRIKALARIDAN FOYDALANISH

Rubrikalar bu – o‘quvchilarning ta‘lim olish jarayonidagi muvaffaqiyatini formativ baholashda ishlatilishi mumkin bo‘lgan ko‘p o‘lchovli ko‘rsatmalar to‘plami. Rubrika berilgan topshiriq bo‘yicha aniq komponentlar va taxminlarni baholovchi qo‘llanmaning bir turi. Shuningdek, ular insho, tadqiqot ishlari, guruh yoki individual loyiha ishlari, portfoliolar va taqdimotlarni baholash uchun ishlatilishi mumkin¹⁵.

4K rubrikalari – XXI asrda o‘qitish va ta‘lim olish jarayonida taqdim etilayotgan 4K komponentlarini har tomonlama baholashda yordam beradi. Hozirda ko‘p qo‘llanilayotgan OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) “EdLeader”, “Weebly”, “North Salem Central School” kabilar tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyaviy 4K rubrikalari ta‘limning barcha bosqichlari, ya‘ni boshlang‘ich (ISCED I), tayanch (ISCED II) hamda o‘rta ta‘limni (ISCED III) qamrab oladi. 4K rubrikalarining ikki xil shakli bo‘lib, birinchisi – “konseptual rubrika”, ikkinchisi – “baholash rubrikasi” hisoblanadi. Konseptual rubrikalar biror maxsus soha yoki fanga mo‘ljallanmagan bo‘lib, soha bo‘yicha umumiy pedagogik faoliyatda foydalanishga mo‘ljallangan va o‘qituvchilar uni o‘z sohalari kesimida moslashtirishlari mumkin. O‘quvchining maxsus qobiliyatlarini kuzatish va rivojlantirish uchun mo‘ljallangan rubrikalar baholash rubrikalari hisoblanadi.

Mavjud rubrikalar asosida Ta‘limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tomonidan ishlab chiqilgan 4K rubrikalari o‘quvchilarni *boshlang‘ich, rivojlanayotgan, malakali va namunali* darajalar orqali tasniflaydi. Bu rubrikalarni o‘qituvchilar, mutaxassislar, o‘quv dasturlari loyihalovchilari, baholash mutaxassislari o‘z yo‘nalishlariga moslashtirishlari mumkin.

Ushbu 4K rubrikalari quyidagi maqsadlar uchun mo‘ljallangan:

- 4K ning har bir yo‘nalishi bilan bog‘liq o‘zlashtirish sohalarini aniqlash;
- 4K ning har bir yo‘nalishi bilan bog‘liq kognitiv, affektiv va psixomotor ko‘nikmalarini erta aniqlash;

¹⁵ <https://www.edutopia.org/assessment-guide-rubrics#:~:text=Rubrics%20are%20multidimensional%20sets%20of,the%20same%20score%20or%20grade.>

- o'quvchilarni formativ baholashda topshiriqlarga tenglik, adolatlik, tushunarlik tamoyillari asosida 4K ni singdirish;
- har bir toifada o'zlashtirish davomiyligini, jumladan, darslarga namunali qatnashish tartibini tasvirlash;
- 4K bo'yicha manfaatdor tomonlar uchun umumiy, tushunish oson bo'lgan lug'atni taqdim etish;
- turli sinf darajalarida va asosiy o'quv fanlari sohalarida foydalanish uchun qo'llash;
- o'qituvchilarga o'quvchilarning XXI asr ko'nikmalarini egallashga imkon beruvchi murakkab vazifalarni bajarishni baholashga yordam berish.

Mazkur tavsiyaviy rubrikalar maxsus fan, yo'nalish yoki mavzuga asoslangan emas – dizayniga ko'ra ular biron-bir asosiy o'quv faniga mutlaq mos kelmaydi. Foydalanuvchilarga mazkur rubrikalarni o'z yo'nalishi yoki maxsus mavzuga moslashtirishlari tavsiya etiladi.

Ushbu 4K rubrikalarida ifodalangan o'quvchining ta'lim olishda va yaxlit rivojlanishini tasniflab beruvchi to'rtta daraja quyidagicha ta'riflanadi:

Boshlang'ich – ushbu darajadagi o'quvchi, asosiy malaka darajasiga erishishda muhim yordam talab qiladigan o'quvchilar toifasiga kiradi;

Rivojlanayotgan – ushbu darajadagi o'quvchi, ko'nikma va qobiliyatlari rivojlanayotgan, topshiriqlarni qoniqarli malaka bilan bajaradigan o'quvchilar toifasiga kiradi;

Malakali – ushbu darajadagi o'quvchi, qobiliyatlari ancha rivojlangan, jamoada ham o'zini yaxshi tutadigan, topshiriqlarni yaxshi bajaradigan, ilg'or o'quvchilar toifasiga kiradi;

Namunali – ushbu darajadagi o'quvchi, berilgan topshiriqlarni doimiy ravishda jamoadoshlariga o'rnak bo'lgan holda bajaradigan, eng ilg'or o'quvchilar toifasiga kiradi.

Tavsiyaviy 4K rubrikalarida har bir kompetensiya ichida kichik qobiliyat yoki malaka bo'yicha o'quvchining rivojlanish darajalari bo'yicha ta'riflar berib boriladi. Ushbu 4K rubrikalar kichik qobiliyatlari tasnifi empirik tajribadan o'tkazilgan topshiriqlar haqidagi o'qituvchilar fikr-mulohazalari aso-

sida yaratilgan hamda dunyo didaktik tajribasida foydalanilayotgan rubrikalarning tarjima qilingan va moslashtirilgan namunasi hisoblanadi.

Kollaboratsiya kompetensiyasiga tegishli rubrikasida *hamkorlik, mas'uliyat va tashabbus, moslashuvchanlik, sinxron/asinxron hamkorlik, o'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish* kabi o'quvchining kichik qobiliyat sohalari tasniflanadi.

Kommunikatsiya kompetensiyasiga oid rubrikada *kommunikatsiya vositalaridan foydalanish, tinglab tushunish, og'zaki taqdimot qilish, o'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish* kabi kichik qobiliyatlar tasniflanadi.

Kreativ fikrlash kompetensiyasining rubrikasida, *g'oya yaratish, kreativ mahsuldorlik, g'oyalarni baholash va takomillashtirish, o'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish* kabi kichik malaka sohalari yosh va rivojlanish darajalari kesimida tasniflanadi.

Kritik fikrlash kompetensiyasining rubrikasida *axborot talqini, tahlil yuritish, muhokama qurish, muammolarga yechim taklif qilish, mulohaza yuritish, o'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish* malakalari bo'yicha yosh va rivojlanish darajalari bo'yicha tasniflanadi.

4K KOMPETENSIYALARNI BAHOLASH RUBRIKALARI

Kollaboratsiya kompetensiyasini 1-4-sinflarda baholash

| | Boshlang'ich | Rivojlanayotgan |
|--|--|---|
| Shaxslararo hamkorlik | O'quvchi guruhda ustunlik qiladi yoki guruhdan chiqib ketadi, doimiy nazorat va eslatmalar zarur. O'quvchi guruhda boshqa o'quvchilar bilan ishlay olmaydi va guruh a'zolarining fikrini e'tiborsiz qoldirib, yolg'iz ishlashni talab qiladi. | Fikrlarini baham ko'radi, lekin bu g'oyalar topshiriq bilan bevosita bog'liq bo'lmasligi mumkin. Guruhlarda ishlashni istamaydi, lekin boshqalarning fikrini inobatga oladi va ularning g'oyalarni shaxsiy ishiga kiritishi mumkin. |
| Mas'uliyat va tashabbus | Ko'pincha guruh ishining ko'lami va ahamiyatini noto'g'ri tushunadi. Kamdan kam hollarda rejalarni amalga oshirishda mas'uliyatli bo'ladi. Topshiriqni bajarish jarayonida doimiy yo'nalish va ko'rsatmalar olishga muhtoj. | O'z vazifasini yakka holda bajaradi, mustaqil ravishda ishlaydi, o'qituvchiga hisobot berib boradi. Guruh ishining ko'lami va ahamiyati haqida cheklangan tushunchaga ega. Ba'zan rejalarni amalga oshirishda mas'uliyat ko'rsatadi. |
| Moslashuvchanlik | Guruh a'zolari tomonidan bildirilgan g'oyalar va fikrlarni tinglashga tayyor, lekin har doim ham tushunmaydi. O'z g'oyalari va fikrlarini tushuntiradi, lekin kamdan kam hollarda o'z g'oyalarni o'zgartiradi. | Guruh a'zolari tomonidan bildirilgan turli g'oyalar va fikrlarni tushunishini ko'rsatadi. Ba'zan o'z g'oyalari yoki fikrlarini almashilgan ma'lumotlar asosida o'zgartiradi. |
| O'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish | Kamdan kam hollarda jamoaviy ishni yaxshilash bo'yicha fikr yuritadi, deyarli o'z-o'zini tanqid qilmaydi. Hamkorlik natijasida o'zlashtira olmaganligini ko'rsatadi (O'quvchining qaysi sohalarda hamkorligi kuchli? Qayerda zaif? Unga qanday yordam kerak? Keyingi qadamda hamkorlikda nimani yaxshilash mumkin? – kabi savollarni so'rash lozim). | Ba'zan hamkorlikda ishlashning yaxshi tomonlari haqida fikr yuritadi va o'z-o'zini tanqid qiladi. Hamkorlik tajribasi natijasida o'zlashtirganini tasvirlaydi. (O'quvchining qaysi sohalarda hamkorligi kuchli? Qayerda zaif? Unga qanday yordam kerak? Keyingi safar hamkorlikda nimani yaxshilash mumkin? – kabi savollarni so'rash lozim). |

| Malakali | Namunali |
|---|---|
| <p>Guruh bilan ishlaydi va boshqalarning fikr va g'oyalari qabul qila oladi.</p> <p>Topshiriqqa tegishli va umumiy rejaga mos keladigan g'oyalarni taklif qiladi.</p> | <p>Munozara orqali muammolarni hal qilish uchun izchil ishlaydi. Guruh a'zolarining o'zlashtirish ehtiyojlarini tushunadi. Batafsil rejani ishlab chiqish uchun g'oyalarni yaratadi yoki boshqalarning g'oyalari rivojlantiradi.</p> |
| <p>O'z vazifasini guruh tavsiyalari asosida yaxshi bajaradi. Guruh ishining ko'lami va ahamiyatini aniq tushunganligini namoyish etadi. Rejalarni amalga oshirish uchun mas'uliyatni izchil namoyon qiladi.</p> | <p>O'z qismini bajarish uchun mustaqil ishlaydi va boshqa guruh a'zolariga yordam beradi. Jarayonni nazorat qilish va yo'nalish berish orqali guruhga yetakchilik qiladi. Yetakchilik mas'uliyatini biroz rag'bat bilan bajaradi.</p> |
| <p>Guruh a'zolari tomonidan bildirilgan turli g'oyalar va fikrlarni tan oladi va tushunadi.</p> <p>Doimiy ravishda o'z g'oyalari va fikrlarini almashilgan ma'lumotlar asosida o'zgartirishga tayyorligini ko'rsatadi.</p> | <p>Guruh a'zolari tomonidan bildirilgan turli g'oyalar va fikrlarni taqqoslaydi va qiyoslaydi. Kelishuv va norozilik nuqtalarini aniqlaydi; fikrlarga turli nuqtayi nazardan qarashi mumkin.</p> |
| <p>Doimiy ravishda hamkorlikda ishlashning yaxshi tomonlari haqida fikr yuritadi va o'zini-o'zi tanqid qila boshlaydi. Hamkorlik natijasida o'zlashtirganini aniq tasvirlab beradi (O'quvchining qaysi sohalarda hamkorligi kuchli? Qayerda zaif? Unga qanday yordam kerak? Keyingi safar hamkorlikda nimani yaxshilash mumkin? – kabi savollarni so'rash lozim).</p> | <p>Hamkorlikda ishlashning foydali taraflarini yuqori darajada aks ettiradi va o'z-o'zini tanqid qilish qobiliyatiga ega.</p> |

KOMMUNIKATSIYA KOMPETENSIYASINI 1–4-SINFLARDA BAHOLASH

| | Boshlang'ich | Rivojlanayotgan |
|---|--|---|
| Kommunikatsiya vositalaridan foydalanish | Og'zaki va yozma muloqotni yaxshilash uchun raqamli vositalardan qanday foydalanishni o'rganadi. Individual o'rganishni yoqlab, boshqalarni o'zlashtirishini osonlashtirish uchun ushbu vositalardan foydalanish imkonini yaratadi (boshqalarga joy beradi). | Og'zaki va yozma muloqotni yaxshilashda raqamli vositalar va muhitlardan qanday foydalanishni biladi, individual o'rganishni yoqlab, boshqalarning o'zlashtirishini osonlashtirish uchun ba'zan bu vositalardan foydalanadi. |
| Tinglab tushunish | Samarali tinglash uchun asos yaratadi, ma'ruzachi yetkazayotgan ma'lumotni o'z bilimi va tajribasi bilan bog'laydi, lekin ko'pincha ma'ruzachi aytmoqchi bo'lgan asosiy fikrlarni chalkashtirib yuboradi, minimal tushunganini ko'rsatadigan xulosalar qiladi. | Tinglashning samarali strategiyalaridan foydalana boshlaydi, ma'ruzachi yetkazayotgan ma'lumotni o'z bilimi va tajribasi bilan bog'laydi, lekin ba'zida ma'ruzachi yetkazmoqchi bo'lgan asosiy fikrlarni chalkashtirib yuboradi. |
| Og'zaki taqdimot qilish | Asosiy g'oyani tasdiqlovchi cheklangan dalillar va tafsilotlarni qamrab oladi. Taqdimot jarayonida ovozi juda past bo'lishi mumkin. Taqdimot tezligi tushunishni qiyinlashtirishi, mazmunga oid bilimlarini namoyish qilishda kam sonli savollarga to'g'ri javob bera olishi mumkin. Vizual effektlar taqdimotdan chalg'itishi mumkin. | Og'zaki ma'ruza qilishda asosiy g'oyani tasdiqlovchi ba'zi faktlar va tafsilotlarni qamrab oladi va qo'shimcha tafsilotlar ham talab qilishi mumkin. Ko'pchilik tinglovchilar uchun yetarlicha baland ovozda gapiradi. Taqdimot davomida so'ralgan savollarga ishonchli javob beradi. Vizual effektlar biroz yordam beradi. |
| O'z-o'zini azorat qilish/aks ettirish | Muloqot ko'nikmalarini amaliyot bilan yaxshilash mumkinligini tushunadi, lekin o'zining muloqot qobiliyatlarini aks ettirmaydi (U qachon kuchli muloqot qobiliyatini namoyon etdi? Unga qanchalik yordam kerak? Keyingi safar muloqotda nimani yaxshilash mumkin? – kabi savollarni so'rash lozim). | Muloqot jarayonida o'z muvaffaqiyat darajasini kamdan-kam hollarda aniq aks ettiradi (U qachon kuchli muloqot qobiliyatini namoyon etdi? Unga qanchalik yordam kerak? Keyingi safar muloqotda nimani yaxshilash mumkin? – kabi savollarni so'rash lozim). |

| Malakali | Namunali |
|--|---|
| Zarur bo'lganda, og'zaki va yozma muloqotni yaxshilash uchun raqamli media vositalari va muhitlardan foydalanadi. | Muloqotni yaxshilash uchun raqamli vositalar va muhitlardan foydalangan holda aniq xabarlarni ishlab chiqadi. |
| Samarali tinglash strategiyalaridan foydalana-di, ma'ruzachi yetkazayotgan ma'lumotni o'z bilimi va tajribasi bilan bog'laydi, ma'ruzachi berayotgan asosiy fikrlarni ta'kidlaydi va to'g'ri tushunganini ko'rsatuvchi mantiqiy xulosalar qiladi. | Ma'ruzachining fikrlarini aniq tushu-nadi va umumlashtiradi, shuningdek, har bir xabar qanday sabablar va da-lillar bilan tasdiqlanishini tushuntirib beradi. |
| Og'zaki taqdimot qilganda, asosiy fikrni qo'l-lab-quvvatlash uchun tegishli miqdordagi da-lillar va tafsilotlardan foydalanadi. Aniq va tushunarli tezlikda gapiradi, mazmunga oid bilimni namoyish qilishda o'z darajasiga mos savollarga to'g'ri va ishonchli javob beradi. Vi-zual effektlar muhim faktlar yoki g'oyalarni ta'-kidlashga yordam beradi. | Taqdimot mavzusini qiziqarli tarz-da muhokama qiladi, tinglovchilar-da yuqori qiziqish uyg'otadi, nutqini mavzuga, topshiriqqa va vaziyatga moslashtiradi, kerak bo'lganda adabiy (rasmiy) tildan foydalanadi. |
| Ba'zan muloqotdagi o'z muvaffaqiyati darajasi-ni aniq aks ettiradi (U qachon kuchli muloqot qobiliyatini namoyon etdi? Unga qanchalik yordam kerak? Keyingi safar muloqotda nima-ni yaxshilash mumkin? – kabi savollarni so'-rash lozim). | Muloqot jarayonidagi o'z muvaffaqiya-ti darajasini izchil va aniq aks ettiradi (U qachon kuchli muloqot qobiliyatini namoyon etdi? Unga qanchalik yordam kerak? Keyingi safar muloqotda nima-ni yaxshilash mumkin? – kabi savollarni so'-rash lozim). |

KREATIV FIKRLASH KOMPETENSIYASINI 1–4-SINFLARDA BAHOLASH

| | Boshlang'ich | Rivojlanayotgan |
|--|--|---|
| G'oya yaratish | O'quvchi undan nima kutilayotganini bilmaydi, shuning uchun barcha g'oyalari tarqoq va diqqat markazga qaratilmagan. Balki muammoni hal qilish uchun oz sonli g'oyalarni yaratishi mumkin, lekin g'oyalar topshiriq bilan aniq bog'lanmaydi. | Odatda, o'zi yangi g'oya yaratishdan ko'ra boshqalarning topshiriqqa aloqador g'oyalari taqlid/ishora qiladi. Muammoni hal qilish uchun oz sonli g'oyalarni yaratishi mumkin. |
| Kreativ mahsul-dorlik (innovatsiya) | O'quvchi topshiriqni bajarish uchun g'oyani tanlashda muhim yordam talab qiladi. Mahsulot yoki taqdimot yaratadi, lekin mahsulot muammoga aniq javob bermaydi va o'ziga xos deb hisoblanmaydi (mavjud g'oyani shunchaki nusxalashi mumkin). | Foydalanish uchun g'oya(lar)ni tanlaydi, lekin topshiriq talabiga to'liq mos kelmaydi. To'g'ridan-to'g'ri topshiriq yoki muammo bilan bevosita bog'liq bo'lgan mahsulot yoki taqdimot yaratadi. Mahsulot biroz foydali va o'ziga xos bo'lishi mumkin. |
| G'oyalarni takomillashtirish | Berilgan topshiriqni bajarish uchun eng yaxshi g'oyani tanlash muhim ekanligini tushunadi, lekin g'oyani tanlay olmaydi va izoh bera olmaydi yoki fikr-mulohazalar asosida "keyingi qadamlar"ni aniqlay olmaydi. | Variantlarni ko'rib chiqadi va eng yaxshi g'oyani aniqlaydi, ammo qarorini yetarli darajada aniq tushuntirmaydi. G'oyani yaxshilash uchun biroz aniqlik bilan "keyingi qadamlar"ni aniqlaydi. |
| O'z-o'zini nazorat qilish/ aks ettirish | Kamdan-kam hollarda o'z ijodini aniq tahlil qiladi va savol beradi (O'quvchi o'z g'oyalarining sifatini baholayaptimi? Muammolar ustida ishlayaptimi? Ijodiy jarayonda unga qanday yordam kerakligini hisobga olmoqdami? – kabi savollarni so'rash lozim). | Ba'zan o'z ijodini to'g'ri tahlil qiladi va shubha ostiga qo'yadi (O'quvchi o'z g'oyalarining sifatini baholayaptimi? Muammolar ustida ishlayaptimi? Ijodiy jarayonda unga qanday yordam kerakligini hisobga olmoqdami? – kabi savollarni so'rash lozim). |

| Malakali | Namunali |
|---|--|
| <p>Muammoni hal qilish uchun topshiriqqa aloqador yetarlicha yangi g'oyalarni yarata-di, g'oyalar ijodiy jarayonni boshlash uchun yetarli tafsilotlarni o'z ichiga oladi.</p> | <p>Asosiy ma'lumotlarni diqqat bilan ko'rib chiqish yoki topshiriqni qayta ko'rib chiqish orqali bir qator yangi g'oyalarni yaratadi.</p> <p>Muammoni hal qilish uchun ko'p sonli aniq g'oyalarni yaratadi. G'oyalarni yaratishda o'ziga xos yondashuvdan foydalanadi.</p> |
| <p>Foydalanish uchun topshiriq talabiga javob beradigan g'oya(lar)ni tanlaydi. To'g'ri-dan-to'g'ri vazifa yoki muammo bilan bog'liq bo'lgan mahsulot yoki taqdimot yaratish uchun g'oyalardan foydalanadi. Mahsulot foydali va o'ziga xos bo'lib, ish sifatini aniq aks ettiradi.</p> | <p>Topshiriqdan kutilganidan yuqori bo'lgan g'oya(lar)ni tanlaydi. Yuqori darajadagi mustaqillik bilan, topshiriq yoki muammo bilan bevosita bog'liq bo'lgan foydali va o'ziga xos mahsulot yoki taqdimot yaratish uchun g'oyalardan foydalanadi.</p> |
| <p>Variantlarni ko'rib chiqadi va muammoni hal qilish uchun eng yaxshi g'oyani aniqlaydi. Yechimni aniq tushuntiradi, fikr-mulohazalarni tahlil qiladi va g'oyani yaxshilash uchun oqilona "keyingi qadamlar"ni belgilaydi.</p> | <p>Fikrlarni baholash uchun tashkiliy usullardan (toifalarga ajratish, ustuvorlikni belgilash va tasniflash) foydalanadi. G'oyalar orasidagi bog'lanishni tushuntiradi.</p> |
| <p>Ko'pincha o'z ijodkorligini aniq tahlil qiladi va shubha ostiga qo'yadi (O'quvchi o'z g'oyalarining sifatini baholayaptimi? Muammolar ustida ishlayaptimi? Ijodiy jarayonda unga qanday yordam kerakligini hisobga o'lmoqdami? – kabi savollarni so'rash lozim).</p> | <p>O'z harakatlarini yuqori darajada nazorat qiluvchi va aks ettiruvchi.</p> |

KRITIK FIKRLASH KOMPETENSIYASINI 1–4-SINFLARDA BAHOLASH

| | Boshlang'ich | Rivojlanayotgan |
|--|--|---|
| Axborot talqini | O'z fikrlarini ifodalashda muhim yordamga muhtoj. O'quvchi muammo, tadqiqot yoki topshiriqni o'z so'zi bilan tushuntirib bera olmasligini ko'rsatadi. Oz sonli, noaniq savollarni beradi. | Ba'zida g'oyalar bildiradi, lekin uning g'oyalari mavzuga mos kelishi uchun yordam kerak. Muammo, tadqiqot yoki topshiriqni o'z so'zlari bilan ifodalaydi, ammo tushuntirishda biroz noaniq oz sonli tegishli savollarni so'raydi. |
| Tahlil yuritish | O'quvchi muammo yoki savolni tahlil qilishda qiynaladi. Topshiriqni tushunish uchun katta yordam talab qiladi. | Muammo yoki savolning umumiy g'oyasini tushuntiradi. Boshlashda yoki davom etishda yordam kerak. |
| Muammolarga yechim taklif qilish | Muammoni qanday hal qilish, qiyinchilikka yuzlanish yoki tadqiqot savoliga javob berish bo'yicha g'oyalarni shakllantira boshlaydi. Yechimlarni ishlab chiqish va g'oyalarni tushuntirish uchun asos yaratadi. | Muammoni qanday hal qilish, qiyinchilikka yuzlanish yoki tadqiqot savoliga javob berish haqidagi fikrlarni tushuntiradi, ammo tushuntirish biroz noaniq. Ularning g'oyalari nima uchun mantiqiy ekanligini tasvirlaydi. |
| O'z-o'zini nazorat qilish/ aks ettirish | Kamdan-kam hollarda o'z fikrlarini tanqid qiladi (O'quvchi doimiy ravishda aniqlik va tushunishga intiladimi? O'quvchi aniqlik va tafsilotdan foydalanadimi? O'quvchi fikr yuritish uchun yetarli vaqt va kuch sarflaydimi? Tanqidiy fikrlash jarayoni uchun qanday yordam kerakligini ko'rib chiqadimi? – kabi savollarni so'rash lozim). | Ba'zan o'zining tanqidiy fikrlash qobiliyatini namoyon qiladi (O'quvchi doimiy ravishda aniqlik va tushunishga intiladimi? O'quvchi aniqlik va tafsilotdan foydalanadimi? O'quvchi fikr yuritish uchun yetarli vaqt va kuch sarflaydimi? Tanqidiy fikrlash jarayoni uchun qanday yordam kerakligini ko'rib chiqadimi? – kabi savollarni so'rash lozim). |

| Malakali | Namunali |
|---|--|
| <p>Fikrlarini bildira oladi bunda g'oyalarni taqdim etadi. Muammo, tadqiqot yoki topshiriqni o'z so'zlari bilan aniq tushuntiradi. Odatda aniq va yetarli miqdordagi savollar beradi.</p> | <p>Ma'lumot / g'oyalarni taqdim etadi bunda tasvirlovchi va tegishli tafsilotlarni qo'shadi. Muammo, tadqiqot yoki topshiriqning muhim tafsilotlarini o'z so'zlari bilan tasvirlaydi.</p> <p>Ko'p sonli aniq, kuchli, ochiq, o'ylantiruvchi savollar yaratadi.</p> |
| <p>Muammo yoki savolni tushuntiradi va uni qanday hal qilish bo'yicha aniq reja yoki g'oyaga ega. Davom etishda minimal yordam kerak.</p> | <p>Muammoni tushuntiradi, rejasi yoki g'oyasi bor va bu yo'lda qiyinchiliklarni yengishga tayyor. Topshiriqni bajarishda mustaqil ishlaydi.</p> |
| <p>Muammoni qanday hal qilish, qiyinchilikka yuzlanish yoki tadqiqot savoliga javob berish haqidagi fikrlarni tushuntiradi. G'oyalari nima uchun mantiqiy ekanligini aniq tasvirlab beradi.</p> | <p>Muammoni qanday hal qilish, qiyinchilikka yuzlanish yoki tadqiqot savoliga javob berishning eng yaxshi usullari haqida juda aniq va jozibali tavsifni taklif qiladi. G'oyalarni sinovdan o'tkazadi, natijalarni baholaydi va yangi yechimga ehtiyoj bor yoki yo'qligini hal qiladi.</p> |
| <p>Ko'pincha o'zining tanqidiy fikrlash qobiliyatini namoyon qiladi (O'quvchi doimiy ravishda aniqlik va tushunishga intiladimi? O'quvchi aniqlik va tafsilotdan foydalana-dimi? O'quvchi fikr yuritish uchun yetarli vaqt va kuch sarflaydimi? Tanqidiy fikrlash jarayoni uchun qanday yordam kerakligini ko'rib chiqadimi? – kabi savollarni so'rash lozim.</p> | <p>O'z fikrlarini doimiy tanqidiy tahlil qiladi va o'z fikrlari haqida so'rovlar so'raydi.</p> |

KOLLABORATSIYA KOMPETENSIYASINI 5–9-SINFLARDA BAHOLASH

| | Boshlang'ich | Rivojlanayotgan |
|--|---|--|
| Shaxslararo hamkorlik | Kamdan-kam hollarda hurmat bilan muhokama qilish va qaror qabul qilishning kelishilgan me'yorlariga amal qiladi. | Vaqti-vaqti bilan, lekin izchil emas, hurmat bilan muhokama qilish va qaror qabul qilishning kelishilgan me'yorlariga amal qiladi. |
| Mas'uliyat va tashabbus | Mas'uliyatni o'z zimmasiga olishdan va guruh maqsadlarini birgalikda muhokama qilishda qatnashishdan bosh tortadi. Deyarli guruh ishining ko'lami va ahamiyatini tushunmaydi, tashabbus ko'rsatishdan ko'ra kuza-tuvchi bo'lishga intiladi. Doimiy ravishda ishni kechikib topshiradi. | Mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyorligini ko'rsatadi. Guruh ishining ko'lami va ahamiyatini cheklangan darajada tushunadi. Ba'zan guruh ishlariga yaxshi tayyorgarlik ko'radi va bajaradi. O'ziga yuklatilgan vazifa va mas'uliyatni muntazam eslatma, ko'rsatma va yo'naltirishlar orqali bajaradi. |
| Moslashuvchanlik | Guruh a'zolarining bildirgan fikr va mulohazalarini tinglaydi, lekin har doim ham tushunmaydi. Kamdan-kam hollarda qabul qilingan ma'lumotlari asosida o'z fikrlarini o'zgartiradi. | Guruh a'zolarining xilma-xil g'oyalari va qarashlarini tushunishini namoyish etadi. Ba'zan olingan ma'lumotlar asosida o'z g'oyalari va fikrlarini o'zgartirishga tayyorligini ko'rsatadi. |
| Sinxron/asinxron hamkorlik | Zamonaviy texnologiya vositalari va ulardan hamkorlik uchun foydalanishdan xabardor emas. Tanlangan vositalardan vazifalarni bajarishda foydalanmaydi. Texnologiya vositalaridan asinxron hamkorlik uchun foydalana olmaydi. | Zamonaviy texnologiya vositalari va ulardan hamkorlik qilish uchun qanday foydalanishni tushuna boshlaydi. Vazifalarni bajarishda tanlangan vositalardan ko'pincha ulardan jamoa samaradorligini pasaytiradigan usullarda foydalanadi. |
| O'z-o'zini azorat qilish/aks ettirish | Kamdan-kam hollarda o'z-o'zini tanqid qiladi yoki jamoaviy ishlashning foydali tomonlari haqida fikr yuritadi. (O'quvchining qaysi sohalarda hamkorligi kuchli? Qayerda zaif? Unga qanday yordam kerak? Keyingi safar hamkorlikda nimani yaxshilash mumkin? – kabi savollarni so'rash lozim). | Ba'zan o'z-o'zini tanqid qiladi va jamoaviy hamkorlikning foydali tomonlari haqida fikr yuritadi. Hamkorlik tajribasi natijasida o'zlashtirishni tasvirlaydi. (O'quvchining qaysi sohalarda hamkorligi kuchli? Qayerda zaif? Unga qanday yordam kerak? Keyingi safar hamkorlikda nimani yaxshilash mumkin? – kabi savollarni so'rash lozim). |

| Malakali | Namunali |
|--|--|
| Hurmat bilan muhokama qilish va qaror qabul qilishning kelishilgan me'yorlariga izchil rioya qiladi. Guruhdagi individual rolni doimiy ravishda qabul qiladi va bajaradi. | Munozara orqali guruhda muammolarni hal qilish uchun izchil ishlaydi. Guruh a'zolarining o'rganishga bo'lgan ehtiyojini tushunadi. |
| Mas'uliyatni ijobiy munosabat bilan qabul qiladi. Zarur bo'lganda boshqalarga yordam beradi. Barcha jamoa a'zolarining fikrlarini qadrlaydi. Ko'pincha guruhda ishlashga yaxshi tayyorlanadi. Barcha individual topshiriqlarni o'z vaqtida bajaradi. Jamoada faol rol o'ynaydi va jamoa maqsadlari va muddatlarini belgilashga katta hissa qo'shadi va jamoa ishining ko'lami va ahamiyatini aniq tushunadi. O'ziga yuklatilgan vazifa va mas'uliyatni biroz eslatma yoki ko'rsatmalar yordamida bajaradi. | Bajarilayotgan vazifaga ishtiyoq bildiradi. O'z ishini guruhning umumiy faoliyatini yaxshilaydigan tarzda boshqalarning ishi bilan bog'laydi. Maqsad sari jamoaviy yondashuvni izchil va aniq kuzatib boradi, kerak bo'lganda tuzatishlar kiritadi. Jamoa maqsadlarini aniq ifodalaydi, ishni puxtalik bilan tashkil qiladi va taqsimlaydi. Yetakchilikni taqsimlaydi, qachon rahbarlik qilishni va qachon ergashishni biladi. Sinf-doshlaridan tashqaridagi odamlar (masalan, soha mutaxassislari) bilan aloqa o'rnatadi. |
| Guruh a'zolarining bildirgan turli fikr va g'oyalarini qabul qiladi va tushunadi. Qabul qilingan ma'lumotlar asosida g'oyalar yoki fikrlarni o'zgartirishga tayyorligini doimiy ravishda namoyish etadi. | Guruh a'zolarining bildirgan turli g'oya va fikrlarini qiyoslaydi va taqqoslaydi. Kelishish va kelishmovchilik nuqtalarini aniqlaydi. Fikrlarni turli nuqtayi nazardan ko'rib chiqishi mumkin. |
| Zamonaviy texnologiya vositalari va ular-dan hamkorlik uchun qanday foydalanish mumkinligidan xabardor. Vazifalarni bajarish uchun tanlangan vositalarni samarali, to'g'ri va mas'uliyat bilan qo'llay boshlaydi, bu esa jamoaning samaradorligini oshiradi. Texnologiya vositalarida asinxron hamkorlik qiladi. | Jamoada unumdorligini oshirish uchun tanlangan vositalardan izchil va mas'uliyat bilan foydalanadi. Texnologik vositalardan foydalangan holda asinxron ishlaganda, ma'lumotni munosib almashish uchun samarali muloqot strategiyalaridan izchil foydalanadi va tegishli ohang yordamida hamkasblar ishini o'qiydi, sharhlaydi va javob beradi. |
| Doimiy ravishda o'z-o'zini tanqid qiladi va jamoaviy ishlashning foydali tomonlari va rivojlantirish zarur sohalari haqida fikr yuritadi. Hamkorlik natijasida o'zlashtirishni aniq tasvirlab beradi (O'quvchining qaysi sohalarda hamkorligi kuchli? Qayerda zaif? Unga qanday yordam kerak? Keyingi safar hamkorlikda nimani yaxshilash mumkin? – kabi savollarni so'rash lozim). | Yuqori darajada aks ettiruvchi va o'z-o'zini tanqid qilish qobiliyatiga ega. |

KOMMUNIKATSIYA KOMPETENSIYASINI 5–9-SINFLARDA BAHOLASH

| | Boshlang'ich | Rivojlanayotgan |
|--|--|---|
| Kommunikat-siya vositalaridan foydalanish | Raqamli ommaviy axborot vositalari va muhiti hamda ulardan kommunikatsiya uchun qanday foydalanish mumkinligini tushuna boshlaydi, lekin muloqot qilish uchun bu vositalardan kamdan-kam foydalanadi. | Raqamli ommaviy axborot vositalari yordamida muloqot qilishni boshlaydi, ammo xabarlarida aniqlik va o'ziga xoslik yo'q bo'lishi mumkin. Muloqot qilishda kommunikatsiya maqsadiga mos kelmaydigan format, rasmiyatchilik va uslubdan foydalanadi. |
| Tinglab tushunish | Samarali tinglash uchun asos yaratadi, ma'ruzachi yetkazayotgan ma'lumotni o'z bilimi va tajribasi bilan bog'laydi, asosiy fikrlarni chalkashtirib yuboradi va kamdan-kam hollarda savollar beradi. Diqqatsiz tinglaydi, ma'ruzachining xabariga qiziqish yo'qligini ko'rsatadi. Kamdan-kam hollarda tinglash me'yorlariga amal qiladi (masalan, boshqalarni diqqat bilan tinglash, navbatma-navbat gapirish, "nafas rostdash"). | Tinglashning samarali strategiyalaridan foydalana boshlaydi, ma'ruzachi yetkazayotgan ma'lumotni o'z bilimi va tajribasi bilan bog'laydi. Ba'zan aytilganlarning ma'nosini aniqlash uchun savollar beradi. Diqqat bilan tinglay boshlaydi, ma'ruzachining xabariga qiziqish bildiradi. Muhokama me'yorlariga rioya qiladi (masalan, boshqalarni diqqat bilan tinglash, navbatma-navbat gapirish, "nafas rostdash"), eslatmalar bilan. |
| Og'zaki taqdimot qilish | Izoh va xulosalar taqdim etmaydi, taqdimotda diqqatni tortish va aniqlik yetishmaydi, cheklangan miqdordagi tavsiflar, dalillar va misollarni beradi. Tomoshabinlarga qaramaydi, past ovozda gapiradi va bir nechta so'zlarni noto'g'ri talaffuz qiladi. | Izoh va xulosalar taqdim etadi, taqdimot biroz yo'naltirilgan va aniq bo'lishi mumkin. Qo'shimcha tavsiflar, dalillar, tafsilotlar va misollar taqdimot sifatini yaxshilaydi. Ko'z bilan aloqa mavjud, ba'zi tinglovchilar uchun yetarlicha baland ovozda gapiradi. |
| O'z-o'zini nazorat qilish / aks ettirish | Kommunikatsiya muvaffaqiyat darajasini kamdan-kam hollarda aniq aks ettiradi (Muloqot qayerda kuchli? Qayerda zaif? Unga qanday yordam kerak? Keyingi safar muloqotda nimani yaxshilash mumkin? – kabi savollarni so'rash lozim). | Ba'zan kommunikatsiya muvaffaqiyat darajasini aniq aks ettiradi (Muloqot qayerda kuchli? Qayerda zaif? Unga qanday yordam kerak? Keyingi safar muloqotda nimani yaxshilash mumkin? – kabi savollarni so'rash lozim). |

| Malakali | Namunali |
|--|---|
| <p>Odatda raqamli axborot vositalaridan (asinxron va sinxron aloqa) foydalangan holda muloqot qilishda aniq, yo‘naltirilgan, qisqa va aniq xabarlarni ishlab chiqadi. Muloqot jarayonida odatda jo‘natuvchi ham, qabul qiluvchi ham bir xil ma‘lumotni tushunadi. XXI asr ommaviy axborot vositalari orqali muloqot qilishda, odatda kommunikatsiya maqsadiga mos format, rasmiyatchilik darajasi va uslubdan foydalanadi.</p> | <p>Raqamli ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda muloqot qilishda kommunikatsiya maqsadiga mos keladigan format, rasmiyatchilik darajasi va uslubdan doimiy ravishda foydalanadi. XXI asr vositalaridan foydalangan holda muloqot qilishda aniq, yo‘naltirilgan va maxsus xabarni izchil rivojlantiradi, muloqot natijasida jo‘natuvchi ham, qabul qiluvchi ham bir xil ma‘lumotni tushunadi.</p> |
| <p>Tinglashning samarali strategiyalaridan foydalanadi, ma‘ruzachining asosiy fikrlarini ta‘kidlaydi, mantiqiy fikr va xulosalar qiladi, ko‘pincha aniq savollar beradi. Odatda faollik va diqqat bilan tinglaydi, og‘zaki fikr-mulohazalarni bildiradi. Tinglash me‘yorlariga amal qiladi.</p> | <p>Tinglashda ma‘noni, shu jumladan, ma‘ruzachining munosabatini tushunadi. Faollik va diqqat bilan tinglaydi, ma‘ruzachining xabariga qiziqish bildiradi va xabar qabul qilinganligini ko‘rsatadigan og‘zaki yoki og‘zaki bo‘lmagan fikr-mulohazalarni bildiradi. O‘rnatilgan tinglash me‘yorlariga izchil amal qiladi.</p> |
| <p>Tegishli dalillar, tafsilot va misollar yordamida aniq muloqot qiladi. Ko‘z bilan aloqa mavjud, yetarlicha baland ovozda va aniq talaffuzdan foydalanadi. Raqamli ommaviy axborot vositalaridan foydalanish tomoshabinlarning qiziqishini oshiradi. Og‘zaki taqdimotlar jarayonida o‘z tushuncha va bilimlarini namoyish qilishda malaka darajasiga mos savollarga to‘g‘ri va ishonchli javob beradi.</p> | <p>Taqdimot mavzusini ishtiyoq va maroq bilan muhokama qiladi, auditoriyada yuqori qiziqish uyg‘otadi.</p> |
| <p>Kommunikatsiya muvaffaqiyat darajasini izchil va aniq aks ettiradi (Muloqot qayerda kuchli? Qayerda zaif? Unga qanday yordam kerak? Keyingi safar muloqotda nimani yaxshilash mumkin? – kabi savollarni so‘rash lozim).</p> | <p>Kommunikatsiya muammolari yoki uzilishlarga ta‘sir qiluvchi asosiy sabablarni to‘g‘ri aniqlaydi, muloqotni yaxshilashga qaratilgan harakatlarni izchil belgilaydi.</p> |

KREATIV FIKRLASH KOMPETENSIYASINI 5–9-SINFLARDA BAHOLASH

| | Boshlang'ich | Rivojlanayotgan |
|---|---|---|
| G'oya yaratish | Muammo, tadqiqot yoki topshiriqni tushunishga qodir emasligini ko'rsatadi. Bir nechta g'oyalarni yaratadi, ko'pincha topshiriq bilan noaniq va zaif bog'liq bo'lgan g'oyalarni taklif qiladi. Ushbu g'oyani yetkazishda topshiriqni bajarish uchun mos keladigan shaklda aniq ifodalashga qiynaladi. | Muammo, tadqiqot yoki topshiriqni aniqlaydi, ammo yetarli darajada aniq tushuntirish berolmaydi. Muammoni hal qilish uchun g'oyalarni bildiradi, lekin talqin kreativ jarayonni aks ettirish uchun yetarli hisoblanmaydi. Fikrini ifodalay oladi, lekin har doim ham topshiriqqa mos javob shaklida emas. |
| Kreativ mahsuldorlik (Kreativ innovatsiya) | Topshiriqqa noaniq yoki to'liq aloqasi bo'lmagan g'oya yoki taqdimot yaratadi. G'oya muammoni qanday hal qilishi haqida noaniq tushuntirish beradi. G'oya foydali yoki noyob deb hisoblanmaydi va auditoriya tomonidan ijodiy baholanmaydi (mavjud g'oyaning takrori bo'lishi mumkin). | Topshiriq yoki muammo bilan bevosita bog'liq bo'lgan g'oya yoki taqdimot yaratish uchun g'oyalardan foydalanadi. Yaratilgan mahsulot berilgan muammoni qanday hal qilishini biroz aniq tushuntirib beradi. G'oya auditoriya tomonidan biroz kreativ deb baholanadi. Ish sifatini minimal aniqlik bilan aks ettiradi. |
| G'oyalarni takomillashtirish | G'oyalarni toifalarga bo'linishsiz yoki ustuvorliklarni belgilamasdan ko'rib chiqadi, g'oyani tanlaydi, lekin qarorini oqlay olmaydi. | G'oyalarni baholash uchun toifalash va tasniflash usullaridan foydalana boshlaydi. Eng yaxshi g'oyani tanlaydi, lekin yetarlicha mantiqan aniq bo'lmasligi mumkin. Fikr-mulohazalarni tahlil qiladi va uni "keyingi qadamlar"ga aylantiradi, lekin g'oya sifatini yaxshilash uchun fikr-mulohazalardan foydalana olmaydi. |
| O'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish | Kamdan-kam hollarda o'z ijodi va innovatsiyalarini aniq tahlil qiladi va savol beradi (O'quvchi o'z g'oyalari-ning sifatini baholaydimi? U qat'iyatlimi? Ijodiy jarayonga yetarlicha vaqt va kuch sarflaydimi? Ijodiy jarayonda qanday yordam kerakligini ko'rib chiqadimi? – kabi savollarni so'rash lozim). | Ba'zan o'z ijodi va innovatsiyalarini aniqlik bilan tahlil qiladi va so'roq qiladi (O'quvchi o'z g'oyalari-ning sifatini baholaydimi? U qat'iyatlimi? Ijodiy jarayonga yetarlicha vaqt va kuch sarflaydimi? Ijodiy jarayonda qanday yordam kerakligini ko'rib chiqadimi? – kabi savollarni so'rash lozim). |

| Malakali | Namunali |
|--|---|
| <p>Muammo, tadqiqot yoki topshiriqni hal qilish uchun yetarli miqdordagi aniq g'oyalarni yaratadi, g'oyalarni yaratish uchun asosni aniq belgilaydi. G'oyalar topshiriqqa xos bo'lib, kreativ jarayonni yetarlicha batafsil aks ettiradi. Qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun mos keladigan aniq shakldagi fikrni ifoda eta oladi.</p> | <p>Belgilangan muammolarni hal qilish uchun ko'p sonli aniq g'oyalarni yarata-di. G'oyalarni yaratishda o'ziga xos, no-yob va kreativ yondashuvdan foydalanib, xilma-xil fikrlarni taklif etadi. O'ziga xos g'oyalarni shakllantirishga olib keladigan ochiq savollar bera boshlaydi. Fikrlarini yangicha va teran ifoda eta oladi.</p> |
| <p>Topshiriq yoki muammo bilan bevosita bog'liq bo'lgan mahsulot yoki taqdimot yaratish uchun g'oyalardan foydalanadi. Yaratilgan mahsulot muammoni qanday hal qilishini aniq tushuntirib beradi. Mahsulot keng maqsadli auditoriya uchun qimmatli va noyob hisoblanadi va mutaxassislar tomonidan kreativ deb baholanadi. Shuningdek, ish jarayonini aniq aks ettiradi.</p> | <p>Kreativ mahsulot yaratishda doim mehnatsevarlik va axloqiy xulq-atvorni namoyon etadi. Kreativ g'oyalarni aniq yechimlarga aylantirish uchun zarur bo'lganda konvergent fikrlash qobiliyatlari va/yoki loyihaviy fikrlash strategiyalaridan foydalanadi. Kreativ mahsulotlar yoki g'oyalarni yaratishda yuqori darajadagi moslashuvchanlikni namoyish etadi.</p> |
| <p>G'oyalarni baholash uchun toifalash va tasniflash usullardan samarali foydalanadi. Eng yaxshi g'oyani tanlash uchun natijalardan foydalanadi va o'z qarorini aniq asoslab beradi. Fikr-mulohazalarni tahlil qiladi, uni mantiqiy "keyingi qadamlar"ga aylantiradi va g'oya sifatini yaxshilaydigan o'zgarishlar kiritadi.</p> | <p>Variantlarni ijodiy samarali natijalarga aylantiradigan tarzda saralash, tartibga solish, toifalarga ajratish va ustuvorliklarni belgilash kabilardan foydalanadi. G'oyalar sifatini sezilarli darajada yaxshilaydigan tahrirlar kiritadi.</p> |
| <p>Ko'pincha o'z ijodi va innovatsiyalarini aniqlik bilan tahlil qiladi va shubha ostiga qo'yadi (O'quvchi o'z g'oyalarining sifatini baholaydimi? U qat'iyatlimi? Ijodiy jarayonga yetarlicha vaqt va kuch sarflaydimi? Ijodiy jarayonda qanday yordam kerakligini ko'rib chiqdimi? – kabi savollarni so'rash lozim).</p> | <p>Yaxshi mulohaza yuritadi va o'zini tanqid qilish qobiliyatini namoyon qiladi (O'quvchi o'z g'oyalarining sifatini baholaydimi? U qat'iyatlimi? Ijodiy jarayonga yetarlicha vaqt va kuch sarflaydimi? Ijodiy jarayonda qanday yordam kerakligini ko'rib chiqdimi? – kabi savollarni so'rash lozim).</p> |

KRITIK FIKRLASH KOMPETENSIYASINI 5-9-SINFLARDA BAHOLASH

| | Boshlang'ich | Rivojlanayotgan |
|--|--|--|
| Axborot talqini | Muammo, tadqiqot yoki topshiriqni tushunishga qodir emasligini ko'rsatadi va kamdan-kam hollarda tushunishga intiladi. Topshiriqqa tegishli bo'lmagan savollarni so'raydi. Savollarga javob berish uchun ma'lumot topishga harakat qiladi, lekin kerakli ma'lumotni topa olmaydi. | Muammo, tadqiqot yoki topshiriqni aniqlaydi va tushunishga intiladi, lekin ba'zida yetarli darajada tushunmasdan harakat qiladi. Aniq tadqiqot savollarini shakllantirishni boshlaydi. Ma'lumotni tanlashni boshlaydi, lekin topshiriq savollariga javob berishda yordamga muhtoj. |
| Tahlil yuritish | Axborotning ahamiyatsiz tomonlarini tahlil qiladi yoki noto'g'ri toifalaydi. Ma'lumotning o'xshashligini, farqini va tasnifini aniqlashda jiddiy xatolarga yo'l qo'yadi. Kamdan-kam hollarda dalillarni aniqlaydi. | Axborotni solishtirish va tasniflashning oddiy usulidan foydalanadi, mantiqiy cheklangan taqqoslashlar qiladi. Axborotning to'g'riligi va dolzarbligini baholashni boshlaydi. |
| Muhokama qurish | "Dalillar" tushunchasiga ta'rif beradi, fikrni tasdiqlash uchun manbalardan dalillar to'plash uchun asos yaratadi. "Sabab", "dalil" va "qarama-qarshi fikr" tushunchalarini belgilaydi, fikrni qo'llab-quvvatlash uchun dalillarni tartibga solish va qarama-qarshi da'volarni tan olish uchun asos yaratadi. | Yordam bilan manbalardan dalillar to'playdi, lekin dalillar biroz zaif, manbalar ba'zan noto'g'ri yoki ishonchsiz bo'lishi mumkin. Yordam bilan sabablar va dalillarni tartibga solish va qarama-qarshi da'volarni tan olish qobiliyatini namoyish qila boshlaydi. |
| Yechim taklif qilish | Muammoni qanday hal qilish, qiyinchilikka yuzlanish yoki topshiriqqa javob berish haqida g'oyalarni shakllantirishni tushuna boshlaydi. Yechimlarni ishlab chiqish va g'oyalarni tushuntirish uchun asos yaratadi. | Muammoni qanday hal qilish, qiyinchilikka yuzlanish yoki topshiriqqa javob berish haqidagi fikrlarni biroz noaniq tushuntiradi. O'z g'oyalari nima uchun mantiqiy ekanligini tasvirlashi mumkin. |
| O'z-o'zini nazorat qilish/ aks ettirish | O'zining tanqidiy fikrlash qobiliyatini kamdan-kam hollarda to'g'ri baholaydi. (O'quvchi doimiy ravishda aniqlik va tushunishga intiladimi? O'quvchi aniqlik va tafsilotdan foydalanadimi? O'quvchi fikr yuritish uchun yetarli vaqt va kuch sarflaydimi? Tanqidiy fikrlash jarayoni uchun qanday yordam kerakligini ko'rib chiqadimi? – kabi savollarni so'rash lozim). | Ba'zan o'zining tanqidiy fikrlash qobiliyatini aniq baholaydi. (O'quvchi doimiy ravishda aniqlik va tushunishga intiladimi? O'quvchi aniqlik va tafsilotdan foydalanadimi? O'quvchi fikr yuritish uchun yetarli vaqt va kuch sarflaydimi? Tanqidiy fikrlash jarayoni uchun qanday yordam kerakligini ko'rib chiqadimi? – kabi savollarni so'rash lozim). |

| Malakali | Namunali |
|--|--|
| <p>Muammo, tadqiqot yoki topshiriqni aniqlaydi va doim tushunishga intiladi. Tadqiqot savollarini aniq belgilaydi, muammo, tadqiqot yoki topshiriq bilan bog'liq dastlabki savollarni ishlab chiqish uchun ochiq fikrlash jarayoni bilan shug'ullanadi. Asosiy muammo yoki ustuvor masalalarni belgilaydi.</p> | <p>Muammo, tadqiqot yoki topshiriqni tushunishning ta'sirchan darajasini ko'rsatadi. Tinglovchilarni tushunishning ta'sirchan darajasini namoyish etadi. Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlarning chuqurligi, sifati va qiymatiga ta'sir qiluvchi savollarni diqqat bilan tuzadi. Savollarning sifati talqinni chuqur tekshirish imkonini beradi.</p> |
| <p>Axborotni aniq taqqoslaydi va turkumlaydi, deyarli har doim mazmunli taqqoslashlarni yaratadi.</p> <p>Axborotning to'g'riligi va dolzarbligini va dalillarning mustahkamligini jiddiy xatolarsiz baholaydi.</p> | <p>Mavzuga mos keladigan keng doiradagi ma'lumotlarni malakali va mos ravishda tanlaydi, tasniflaydi va toifalarga ajratadi.</p> <p>Dalillar va manbalarning yaxshi ishlab chiqilgan tahlilini olib boradi. Har doim ma'lumotlarning to'g'riligi, aniqligi va dolzarbligiga shubha qiladi.</p> |
| <p>Kam yordam bilan, o'z fikrini tasdiqlash uchun manbalardan dalillar to'playdi. O'z fikrlarini qo'llab-quvvatlash uchun to'g'ri va ishonchli manbalardan foydalanadi.</p> <p>Minimal qo'llab-quvvatlash bilan sabablar, qarama-qarshi dalillarni aniq tartibga soladi va tan oladi.</p> | <p>O'z fikrini tasdiqlovchi manbalardan mustaqil ravishda dalil to'playdi; To'g'ri va ishonchli manbalarni to'playdi. Sabablar va dalillarni mantiqiy va ishonarli holda tartibga soladi.</p> |
| <p>Muammoni qanday hal qilish, qiyinchilikka yuzlanish yoki tadqiqot savoliga javob berish haqidagi fikrlarni tushuntiradi. G'oyalarni mantiqiy ekanligini aniq tasvirlab beradi.</p> | <p>Muammoni qanday hal qilish, qiyinchilikka yuzlanish yoki tadqiqot savoliga javob berishning eng yaxshi usullari haqida juda aniq va jozibali tavsifni taklif qiladi. G'oyalarni sinovdan o'tkazadi, natijalarni baholaydi va yangi yechimga ehtiyoj bor yoki yo'qligini hal qiladi.</p> |
| <p>Ko'pincha o'zining tanqidiy fikrlash qobiliyatini aniq baholaydi. (O'quvchi doimiy ravishda aniqlik va tushunishga intiladimi? O'quvchi aniqlik va tafsilotdan foydalanadimi? O'quvchi fikr yuritish uchun yetarli vaqt va kuch sarflaydimi? Tanqidiy fikrlash jarayoni uchun qanday yordam kerakligini ko'rib chiqadimi? – kabi savollarni so'rash lozim).</p> | <p>O'z fikrlash jarayonini doimiy ravishda kuzatib boradi va so'rov tajribasi davomida fikrlashning kuchli va zaif tomonlarini aniq ifodalaydi.</p> |

KOLLABORATSIYA KOMPETENSIYASINI 10-11-SINFLARDA BAHOLASH

| | Boshlang'ich | Rivojlanayotgan |
|--|---|--|
| Shaxslararo hamkorlik | Kamdan-kam hollarda muhokama qilish me'yorlariga amal qiladi. Ko'pincha ishtirok etishdan bosh tortadi yoki so'zlar va harakatlar bilan salbiy ohang orqali guruhdagi muammolar yoki tartibsizliklarga hissa qo'shadi. Konstruktiv fikr-mulohazalarga salbiy yoki e'tiborsiz munosabat bildiradi. | Ba'zan muhokamalar orqali guruhdagi muammo va nizolarni hal qilishga yordam beradi. Ba'zan boshqalarning g'oyalari, fikrlari va qarashlarini hisobga oladi va maqbul yechimlarga erishish uchun muzokaralar olib boradi. Ba'zan konstruktiv fikr-mulohazalarni qabul qiladi va fikr-mulohazalar uchun minimal minnatdorchilik ifoda qiladi. |
| Mas'uliyat va tashabbus | Mas'uliyatni shubha bilan qabul qiladi. Yordamga muhtoj bo'lganlarga yordam berishni xohlamaydi. Guruh ishlariga kamdan-kam hollarda yaxshi tayyorlanadi. Doim ishni kechikib topshiradi. Ko'pincha topshiriq bilan bog'liq bo'lmagan yoki ahamiyatsiz ishlarini bajaradi. Faqat o'z ishiga e'tibor qarataadi. Guruh a'zolarining roli va mas'uliyatini tasvirlashda qiynaladi. Jamoada passiv rol o'ynaydi, tashabbus ko'rsatishdan ko'ra kuzatuvchi bo'lishga intiladi. | Mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyorligini ko'rsatadi. Yordamga muhtoj bo'lganlarga yordam berishdan tortinadi. Ba'zan guruh ishlariga yaxshi tayyorgarlik ko'radi. Guruh ishining ko'lami va dolzarbligini ifodalay oladi. O'ziga yuklatilgan vazifa va mas'uliyatni muntazam eslatma va ko'rsatmalar yordamida bajaradi. Shaxsiy rivojini kuzatib boradi, lekin guruhning ehtiyojlari va keyingi qadamlarini yaxshi tushunmaydi. |
| Moslashuvchanlik | Guruh a'zolari o'rtasida g'oyalar, qarashlar va his-tuyg'ular xilma-xilligini tushunishni kamdan-kam hollarda namoyon qiladi. Yakdil, o'zgarmas qarashga ega, yakka holda ishlashga intiladi. | Guruh a'zolari o'rtasida g'oyalar, qarashlar va his-tuyg'ular xilma-xilligi haqida minimal xabardorlikni ko'rsatadi. Ba'zan boshqa g'oyalar, fikrlar va qarashlarni hisobga oladi va maqbul yechimlarga erishish uchun muzokaralar olib boradi. |
| Sinxron/ nasinxron hamkorlik | Hamkorlik uchun mavjud texnologiya vositalaridan xabardor emasligini ko'rsatadi. Topshiriqlarni bajarish uchun guruh tanlagan vositalardan foydalanishda ikkilanadi, Ko'pincha tanlagan vositalardan guruh samaradorligini kamaytiradigan usullarda foydalanadi. Texnologiya vositalaridan foydalangan holda asinxron hamkorlik qilishdan tortinadi. | Hamkorlik uchun mavjud texnologiya vositalaridan minimal xabardorlikni namoyish etadi. Topshiriqlarni bajarish uchun guruh tanlagan vositalardan foydalanishga rozilik beradi, odatda vositalardan to'g'ri va mas'uliyatli foydalanadi, Texnologiya vositalaridan foydalangan holda asinxron hamkorlikda qulaylik va ishonch namoyish qila boshlaydi. |
| O'z-o'zini qiziqitirish/ aks ettirish | Kamdan-kam hollarda o'z-o'zini tanqid qiladi yoki jamoada hamkorlikni yaxshilash haqida fikr yuritadi. Jamoada ishlash tajribasi natijasida o'zlashtirishni tasvirlay olmasligini ko'rsatadi (O'quvchining qaysi sohalarda hamkorligi kuchli? Qayerda zaif? Unga qanday yordam kerak? Keyingi safar hamkorlikda nimani yaxshilash mumkin? – kabi savollarni so'rash lozim). | Ba'zan o'z-o'zini tanqid qiladi va hamkorlikni yaxshilash haqida fikr yuritadi. Jamoaviy ish tajribasidan o'zlashtirishni tasvirlaydi, ammo tavsif yetarli darajada aniq bo'lmasligi mumkin (O'quvchining qaysi sohalarda hamkorligi kuchli? Qayerda zaif? Unga qanday yordam kerak? Keyingi safar hamkorlikda nimani yaxshilash mumkin? – kabi savollarni so'rash lozim). |

| Malakali | Namunali |
|---|---|
| <p>Munozara va kelishuv orqali guruhdagi muammo va nizolarni hal qilishga doimiy yordam beradi. Doimiy ravishda konstruktiv fikr-mulohazalarni taqdim etadi, qabul qiluvchilar tomonidan yaxshi qabul qilinadigan tarzda fikr-mulohazalarni samarali yetkazadi.</p> | <p>Murosaga kelish, jamoa a'zolari o'rtasida kelishuv o'rnatish hamda so'zlar va harakatlar orqali ijobiy kayfiyat o'rnatish orqali jamoa samaradorligini doimiy ravishda oshiradi. Guruh a'zolarining o'zlashtirish ehtiyojlarini tushunishini namoyish etadi.</p> |
| <p>Mas'uliyatni ijobiy qabul qiladi. Zarur bo'lganda boshqalarga yordam beradi. Barcha jamoa a'zolarining fikri va ko'nikmalarini qadrlaydi. Ko'pincha guruhda ishlashga yaxshi tayyorlanadi va barcha individual topshiriqlarni o'z vaqtida bajaradi. Jamoa rivojini nazorat qiladi, kerak bo'lganda yetarli tuzatishlar va qo'shimchalar kiritadi. Guruh ishining hajmi va dolzarbligini aniq va yaqqol tasvirlab bera oladi. O'ziga yuklatilgan vazifa va mas'uliyatni biroz eslatma yoki ko'rsatmalar bilan bajaradi.</p> | <p>Bajarilayotgan vazifaga ishtiyoq bildirib, jamoani ilhomlantiradi va rag'batlantiradi. Individual topshiriqlarni yuqori sifatda bajaradi va faoliyatini guruhning boshqa a'zolari ishi bilan bog'laydi. Jamoa maqsadlarini aniq ifodalaydi, ishni puxtalik bilan tashkil qiladi va taqsimlaydi, jarayonni nazorat qiladi hamda loyihaga e'tibor va yo'nalish beradi (masalan, jadvallar tuzadi, maqsadlarni belgilaydi yoki ko'rsatadi, vazifalarni birinchi o'ringa qo'yadi va taqsimlaydi, resurslarni yig'ishni tashkil qiladi, jamoa rivojini nazorat qiladi).</p> |
| <p>Guruh a'zolari o'rtasida g'oyalar, qarashlar va his-tuyg'ular xilma-xilligidan yetarli darajada xabardorligini namoyish etadi. Boshqa g'oyalar, fikrlar va qarashlarni doimiy ravishda kuzatadi va maqbul yechimlarga erishish uchun muzokaralar olib boradi.</p> | <p>Guruh boshqa a'zolarining g'oyalari, qarashlari, qadriyatlarini va his-tuyg'ulariga hurmati va xayrixohligini doimiy ravishda namoyon qiladi.</p> |
| <p>Hamkorlik uchun mavjud texnologiya vositalaridan xabardorligini namoyish etadi, jamoaga topshiriqlarni bajarish uchun eng mos vositalarni tanlashda yordam beradi, tanlangan vositalardan to'g'ri va mas'uliyat bilan foydalanadi, shu bilan jamoaning samaradorligini oshiradi. Texnologiya vositalari orqali asinxron hamkorlik qilganda, ma'lumotni adekvat almashadi va tegishli ohang yordamida tengdoshlari ishini o'qiydi, sharhlaydi va javob beradi.</p> | <p>Sinxron va asinxron hamkorlik uchun mavjud bo'lgan joriy texnologiya vositalarini chuqur tushunishini namoyish etadi, jamoani turli xil vositalar orqali mahsuldorlikni oshirishga xizmat qiladigan usullarga o'rgatadi. Tanlangan vositalardan foydalanishda jamoa a'zolariga yordam va tavsiyalar berib boradi.</p> |
| <p>Doimiy ravishda o'z-o'zini tanqid qilish va jamoaviy ishni yaxshilash sohalarini tahlil qiladi. Jamoaviy ishlash tajribasi asosida o'zlashtirishni aniq tasvirlab beradi (O'quvchining qaysi sohalarda hamkorligi kuchli? Qayerda zaif? Unga qanday yordam kerak? Keyingi safar hamkorlikda nimani yaxshilash mumkin? – kabi savollarni so'rash lozim).</p> | <p>Yuqori darajada aks ettiruvchi va o'z-o'zini tanqid qilish qobiliyatiga ega.</p> |

KOMMUNIKATSIYA KOMPETENSIYASINI 10–11-SINFLARDA BAHOLASH

| | Boshlang'ich | Rivojlanayotgan |
|---|---|---|
| Kommunikatsiya vositalaridan foydalanish | XXI asr vositalaridan foydalangan holda muloqot qilishda noaniq xabarlar yaratadi. Muloqot natijasida yetkazuvchi va qabul qiluvchi kamdan-kam hollarda bir xil ma'lumotni tushunadilar. Kommunikatsiya maqsadiga mos kelmaydigan format, rasmiyatchilik darajasi va uslubdan foydalanadi. | XXI asr vositalaridan foydalangan holda muloqot qilishda biroz aniq xabarlar yetkazadi. Odatda, muloqot natijasida yetkazuvchi ham, qabul qiluvchi ham bir xil ma'lumotni tushunadi. Muloqot maqsadiga biroz mos keladigan format, rasmiyatchilik va uslubdan foydalanadi. |
| Tinglab tushunish | Samarali tinglash uchun asos yaratadi, ma'ruzachi tomonidan berilgan bilimlarni to'g'ri tushunish qobiliyatini namoyish qila boshlaydi, lekin ko'pincha chalkashib ketadi. Xabarga aniqlik kiritish uchun kamdan-kam hollarda savollar beradi. Diqqatsiz tinglaydi, ma'ruzachining xabariga qiziqishi yo'qligini ko'rsatadi va o'zini tuta olmaydi. Tinglash me'yorlariga kamdan-kam amal qiladi (masalan, "nafas rostdash"). | Biraz samarali tinglaydi. Tinglash chog'ida so'zlovchi tomonidan berilgan bilimlarni ochib beradi. Ba'zan xabar haqida izoh olish uchun savollar beradi. Biroz faollik va diqqat bilan tinglaydi, ma'ruzachining xabariga unchalik qiziqish bildirmaydi, Og'zaki yoki og'zaki bo'lmagan fikr-mulohazalarni bildira boshlaydi. Ba'zan tinglash me'yorlariga amal qiladi (masalan, "nafas rostdash"). |
| Og'zaki taqdimot qilish | Og'zaki ma'ruza qilishda oz sonli savollarga aniq javob bera oladi. Taqdim etilgan ma'lumotlar, xulosalar va tasdiqlovchi dalillar tinglovchi uchun tushunarli bo'lmaydi. Dizayn, mazmun va uslub kamdan-kam hollarda mavzu, maqsad va auditoriyaga mos keladi. Raqamli ommaviy axborot vositalaridan foydalanish taqdimotdan chalg'itadi, Tinglovchilarning tushunishini va qiziqishini kamaytiradi. Taqdimot uchun ajratilgan vaqtdan sezilarli og'ish mavjud. Muloqotni kuchaytirish uchun imo-ishoralardan foydalanish samarasiz. | Og'zaki ma'ruza qilishda ba'zi savollarga to'g'ri javob bera oladi. Ma'lumot, xulosalar va tasdiqlovchi dalillarni ma'lum darajada aniq taqdim etadi. Dizayn, mazmun va uslub ba'zan mavzu, maqsad va auditoriyaga mos keladi. Raqamli ommaviy axborot vositalaridan foydalanish auditoriyaning taqdimotni tushunishini yaxshilaydi va ma'lum darajada qiziqish uyg'otadi. Taqdimot uchun ajratilgan vaqtga deyarli amal qiladi. Muloqotni yaxshilash uchun imo-ishoralardan foydalanish biroz samarali, lekin ba'zida chalg'itishi mumkin. |
| O'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish | Kommunikatsiya muvaffaqiyati darajasi haqida kamdan-kam hollarda o'ylaydi va odatda noto'g'ri aks ettiradi (Muloqot qayerda kuchli edi? Qayerda zaif? Unga qanday yordam kerak? Muloqot sifati uning vazifalarni bajarish va maqsadlarga erishish qobiliyatiga qanday ta'sir qildi? Keyingi safar muloqotda nimani yaxshilash mumkin? – kabi savollarni so'rash lozim). | Ba'zan kommunikatsiya muvaffaqiyati darajasi haqida o'ylaydi, lekin fikrlari har doim ham to'g'ri emas (Muloqot qayerda kuchli? Qayerda zaif? Unga qanday yordam kerak? Muloqot sifati uning vazifalarni bajarish va maqsadlarga erishish qobiliyatiga qanday ta'sir qildi? Keyingi safar muloqotda nimani yaxshilash mumkin? – kabi savollarni so'rash lozim). |

| Malakali | Namunali |
|---|--|
| XXI asr ommaviy axborot vositalari yordamida muloqot qilishda aniq xabarlar yetkazadi. Muloqot natijasida yetkazuvchi va qabul qiluvchi bir xil ma'lumotni tushunishadi. Kommunikatsiya maqsadiga mos format, rasmiyatchilik darajasi va uslubdan foydalanadi. Fikrlarni aniq, qisqa, to'g'ri va samarali bayon qiladi. | XXI asr vositalaridan foydalangan holda muloqot qilishda doim hurmat saqlagan holda, samimiy ohangdan foydalanadi. |
| Samarali tinglaydi. Tinglayotganda ma'noni, shu jumladan, so'zlovchi tomonidan yetkazilgan bilim, munosabat va maqsadni tushunadi. Xabarlarga aniqlik kiritish uchun doimiy ravishda savollar beradi. Faollik va diqqat bilan tinglaydi, o'rnatilgan tinglash me'yorlariga doimiy ravishda amal qiladi (masalan, "nafas rostdash"). | Faol tinglashni namoyish qilish uchun savollar beradi. Boshqalarni ko'p gapirishga undaydi. |
| Og'zaki ma'ruza qilishda savollarga to'g'ri va ishonchli javob beradi. Ma'lumot, xulosalar va tasdiqlovchi dalillarni aniq taqdim etadi. Dizayn, mazmun va uslub doimo mavzu, maqsad va auditoriyaga mos keladi. Raqamli ommaviy axborot vositalaridan foydalanish auditoriyaning taqdimotni tushunishi va qiziqishini yaxshilaydi. Taqdimot uchun ajratilgan vaqtga amal qiladi. Muloqotni yaxshilash uchun imo-ishoralardan samarali foydalanadi. | Taqdimot mavzusini ishtiyoq va maroq bilan muhokama qiladi. Auditoriyaning yuqori qiziqishini uyg'otadi. |
| Kommunikatsiya muvaffaqiyati darajasini izchil va aniq aks ettiradi (Muloqot qayerda kuchli? Qayerda zaif? Unga qanday yordam kerak? Muloqot sifati uning vazifalarni bajarish va maqsadlarga erishish qobiliyatiga qanday ta'sir qildi? Keyingi safar muloqotda nimani yaxshilash mumkin? – kabi savollarni so'rash lozim). | Kommunikatsiya muammolari yoki uzilishlarga ta'sir qiluvchi asosiy sabablarni to'g'ri aniqlaydi. Muloqotni yaxshilash uchun oqilona harakatlarni doimiy ravishda belgilaydi. |

KREATIV FIKRLASH KOMPETENSIYASINI 10–11-SINFLARDA BAHOLASH

| | Boshlang'ich | Rivojlanayotgan |
|---|---|---|
| G'oya yaratish | E'tibor qaratilishi lozim bo'lgan muammo yoki sohani aniqlay olmaydi. Muammo, tadqiqot yoki topshiriqning mohiyatini tushuna olmasligini va o'z so'zlarida ifoda eta olmasligini ko'rsatadi. Kam g'oyalar ishlab chiqadi. Ko'pincha noaniq va xilma-xilligi cheklangan g'oyalarni taklif qiladi. Cheklangan miqdordagi "miyani zo'riqtirish" (brainstorming) mashg'ulotlarida qatnashadi. G'oyalarni ishlab chiqishda bir nechta ochiq "agar... bo'lsa-chi?" – degan savollar beradi. | Muammo, tadqiqot yoki topshiriqning mohiyatini biroz tushuna olishini va muammoni o'z so'zlarida ifoda eta olishini ko'rsatadi. Ba'zan yangi g'oyalarni bildiradi. Ba'zan xilma-xil va tushunarli g'oyalarni taklif qiladi. Vaqti-vaqti bilan "agar ... bo'lsa-chi" degan savollarni so'raydi va ularga javob beradi, lekin kuzatuvchilarni yangi yechimlarga ishontirish uchun g'oyalarni aniq ifodalashda qiynaladi. |
| Kreativ mahsuldorlik (Kreativ innovatsiya) | Yakuniy mahsulot yoki taqdimot natijalari haqida noaniq tasavvurga ega. Ko'pincha mahsulot ishlab chiqish uchun yagona, moslashuvchan usuldan foydalanadi. Topshiriqqa noaniq yoki to'liq aloqasi bo'lmagan mahsulotni taklif qiladi, mahsulot auditoriya uchun qimmatli yoki noyob deb hisoblanmaydi va kreativ deb baholanmaydi. | Yakuniy mahsulot yoki taqdimot haqida tushunchaga ega. Topshiriq talablariga javob berishga intilib, ma'lum darajada mahsulot uchun o'ziga xos g'oyalarni ishlab chiqadi. Auditoriya o'ziga xos va ma'lum darajada kreativ deb baholangan mahsulotni ifodalaydi. Ish sifatini minimal aniqlik bilan aks ettiradi. |
| G'oyalarni takomillashtirish | G'oyalar sifati yoki miqdorini kamdan-kam hollarda yaxshilaydigan tahrir qiladi. G'oyalarni alohida toifalarga bo'lmasdan yoki ustuvorliklarni tasdiqlovchi dalillarsiz taqdim etadi. | G'oyalarni taqdim etish uchun, ustuvorlik berish va tasniflash kabi toifalash usullardan foydalanadi. Tahrirlar qiladi, lekin fikr-mulohazalarni yetarli darajada ilgari surishda yoki g'oyalar sifati va miqdorini yaxshilash uchun harakatga keltiriladigan qadamlarga aylantirishda qiynaladi. |
| O'z-o'zini nazorat qilish/ aks ettirish | Kamdan-kam hollarda o'z ijodi va innovatsiyasini to'g'ri tahlil qiladi va savol beradi. (O'quvchi g'oyalarni izlashda izlanuvchanlik, moslashuvchanlik va noaniqlikka ochiqmi? O'quvchi o'z g'oyalarining sifatini baholaydimi? U qat'iyyatlimi? Doimo aniqlik va tushunishga intiladimi? Kreativ jarayonga yetarlicha vaqt va kuch sarflaydimi? Kreativ jarayon davomida u qanday yordamga muhtojligi haqida fikr yuritadimi?) | Ba'zan o'z ijodi va innovatsiyasini to'g'ri tahlil qiladi va shubha ostiga qo'yadi. (O'quvchi g'oyalarni izlashda izlanuvchanlik, moslashuvchanlik va noaniqlikka ochiqmi? O'quvchi o'z g'oyalarining sifatini baholaydimi? U qat'iyyatlimi? Doimo aniqlik va tushunishga intiladimi? Kreativ jarayonga yetarlicha vaqt va kuch sarflaydimi? Kreativ jarayon davomida u qanday yordamga muhtojligi haqida fikr yuritadimi?) |

| Malakali | Namunali |
|--|--|
| <p>Muammo, tadqiqot yoki topshiriq mohiyatini aniq tushunadi. Muammo, tadqiqot yoki topshiriqni o'z so'zlari orqali ifoda etib, muammoga qanday yondashish bo'yicha aniq yo'nalish beradi. Yetarli miqdordagi yangi g'oyalarni yaratadi. Aniq shakllantirilgan va ijodiy topshiriq bilan bevosita bog'liq turli g'oyalarni taklif qiladi.</p> <p>Qaror qabul qilish uchun yangi yechimlar yoki yangi mezonlarni taklif qiladi va muntazam ravishda "agar... bo'lsa-chi" degan savollarni so'raydi va javob beradi.</p> | <p>Muammo, tadqiqot yoki topshiriqni tushunishning ta'sirchan darajasini ko'rsatadi. G'oyalarni yaratishda o'ziga xos, noyob usulda yondashadi.</p> <p>Divergent fikrlash ko'nikmalarining barcha xususiyatlarini namoyish etadi. Ochiq savollar yoki muammolarga javoban ko'plab yangi g'oyalarni yaratadi, noodatiy variantlarni taklif etadi. O'ziga xos g'oyalarni yaratishga olib keladigan qiyin, ochiq savollarni beradi.</p> |
| <p>Yakuniy mahsulot yoki taqdimot haqida aniq tasavvurga ega. Ishlab chiqish jarayonida muammolar yoki muvaffaqiyatsizliklarga duch kelganda yetarlicha toqat namoyish etadi. Auditoriya uchun qimmatli va noyob deb topilgan va kreativ deb baholangan mahsulotni taqdim etadi. Ish sifatini aniq aks ettiradi.</p> | <p>Kreativ mahsulotlar yaratishda doimo mehnatsevarlik va axloqiy xulq-atvorni namoyon etadi. G'oyalarni yaratish uchun turlicha fikrlash strategiyalaridan samarali foydalanadi. Aniq yechimlar yoki hissalar zarur bo'lganda konvergent fikrlash yoki loyihaviy fikrlash strategiyalarini qo'llaydi.</p> |
| <p>G'oyalar sifati va miqdorini yaxshilash uchun muntazam ravishda yetarli miqdordagi tahrirlarni amalga oshiradi. Ko'pincha turkumlash, ustuvorlik berish yoki tasniflash kabi turli toifalash usullardan foydalangan holda g'oyalar o'rtasida murakkab aloqalarni o'rnatadi.</p> | <p>Imkoniyatlarni istiqbolli usullarda tahlil qilish orqali g'oyalarni aniqlaydi, mustahkamlaydi yoki rivojlantiradi. Muntazam ravishda g'oyalarni ko'rib chiqadi va ularga qayta murojaat qiladi. Ehtimoliy variantlarni samarali kreativ natijalarga aylantiradigan tarzda saralaydi, tartibga soladi, toifalarga ajratadi va ustuvorliklarni belgilaydi.</p> |
| <p>Ko'pincha o'z ijodi va innovatsiyasini to'g'ri tahlil qiladi va shubha ostiga qo'yadi. (O'quvchi g'oyalarni izlashda izlanuvchanlik, moslashuvchanlik va noaniqlikka ochiqmi? O'quvchi o'z g'oyalarining sifatini baholaydimi? U qat'iyatlimi? Doimo aniqlik va tushunishga intiladimi? Kreativ jarayonga yetarlicha vaqt va kuch sarflaydimi? Kreativ jarayon davomida u qanday yordamga muhtojligi haqida fikr yuritadimi?)</p> | <p>Yuqori darajada o'zini aks ettiruvchi va o'z-o'zini tanqid qilish qobiliyatiga ega.</p> |

KRITIK FIKRLASH KOMPETENSIYASINI 10–11-SINFLARDA BAHOLASH

| | Boshlang'ich | Rivojlanayotgan |
|--|---|--|
| Axborot talqini | Muammo, tadqiqot yoki topshiriqni tushunishga qodir emasligini ko'rsatadi. Kamdan-kam hollarda aniqlik va tushunishga intiladi. Aniq yoki javobi bo'lmagan va topshiriqqa tegishli bo'lmagan savollarni shakllantiradi. Savollarga javob berish uchun ma'lumot topishga harakat qiladi, lekin kerakli ma'lumotni topa olmaydi. | Muammo, tadqiqot yoki topshiriqni aniqlaydi, ammo yetarli darajada aniq tushuntira olmaydi. Ba'zan aniqlik va tushunishga intiladi, lekin ba'zida yetarli darajada tushunmasdan oldinga siljiydi. Topshiriq savollarini shakllantirishni boshlaydi, ammo savollar cheklangan va topshiriqqa tegishli bo'lmasligi mumkin. Kerakli ma'lumotni tanlashda yordamga muhtoj. |
| Tahlil yuritish | Axborotning ahamiyatsiz tomonlari yoki aniq tasniflab bo'lmaydigan ma'lumotlarni belgilaydi va toifalar yaratadi. Ma'lumotning o'xshashligi, farqlari va toifalarini aniqlashda jiddiy xatolarga yo'l qo'yadi. Kamdan-kam hollarda dalillarni aniqlaydi. | Axborotni solishtirish va tasniflashning oddiy mezonlarini yaratishga kirishadi, mantiqiy cheklangan taqqoslashlar qiladi. Axborotning to'g'riligi va dolzarbligini baholashni boshlaydi, argumentlarga cheklangan izohlar beradi. |
| Muhokama qurish | Muammo, tadqiqot yoki topshiriq bilan bog'liq muhokamalarni tushunmaydi. Noto'g'ri mulohazalar bildiradi va noto'g'ri xulosalar qiladi, chiqarilgan xulosalar uchun dalil keltirmaydi. Muhokamalari yetarli bo'lmagan yoki tasdiqlanmagan dalillarga asoslanadi. | Muammo, tadqiqot yoki topshiriq bilan bog'liq muhokamalarni tushuna boshlaydi, lekin o'zi uchun to'g'ri xulosa yasay olmaydi. Taklif etilayotgan harakat eng yaxshi yechim ekanligiga izoh beradi, ammo aniqlik kiritmaydi. Muhokamaga tegishli ba'zi dalillarni ko'rib chiqadi. |
| Yechim taklif qilish | Muammo yoki topshiriqni tushunishga yordam beradigan tizimlarni noto'g'ri tavsiflaydi. Ko'pincha muammo, savol yoki topshiriqni to'g'ridan-to'g'ri hal qilmaydigan yechimlar taklif qiladi. Yechim yoki yondashuvni tanlash bilan bog'liq bo'lgan mezonlarni umuman belgilamaydi. | Muammoning ishonchli yechimlarini, savolga javoblarni yoki muammoni hal qilishning yondashuvlarini aniqlay boshlaydi va cheklangan miqdordagi variantlarni taklif qiladi. Taklif etilayotgan yechimlar yoki yondashuvlarning nisbiy samaradorligini tahlil qiladi. |
| O'z-o'zini nazorat qilish/ aks ettirish | O'zining fikrlash, muhokama qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini kamdan-kam hollarda tahlil qiladi va so'roq ostiga qo'yadi. (O'quvchi muqobil nuqtayi nazarlarni ochiq o'rganadimi? O'quvchi ochiq fikr va moslashuvchanlikni namoyon qiladimi? Doimiy ravishda aniqlik va tushunishga intiladimi? O'quvchi aniqlik va puxtalikdan foydalanadimi? O'quvchi fikr yuritish uchun yetarli vaqt va kuch sarflaydimi? Vaqt o'tishi bilan uning fikrlashi yaxshilanish sifatini baholaydimi? U tanqidiy fikrlash jarayonida qanday yordam kerakligini o'ylaydimi? – kabi savollarni so'rash lozim). | Ba'zan o'z fikrlash, muhokama qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini to'g'ri tahlil qiladi va so'roq qiladi. Faoliyati davomida xatolarni aniqlash qobiliyatini namoyish qila boshlaydi, (O'quvchi muqobil nuqtai nazarlarni ochiq o'rganadimi? O'quvchi ochiq fikr va moslashuvchanlikni namoyon qiladimi? Doimiy ravishda aniqlik va tushunishga intiladimi? O'quvchi aniqlik va puxtalikdan foydalanadimi? O'quvchi fikr yuritish uchun yetarli vaqt va kuch sarflaydimi? Vaqt o'tishi bilan uning fikrlashi yaxshilanish sifatini baholaydimi? U tanqidiy fikrlash jarayonida qanday yordam kerakligini o'ylaydimi? – kabi savollarni so'rash lozim). |

| Malakali | Namunali |
|--|--|
| Tadqiqot savollarini aniq belgilaydi, muammo yoki topshiriq bilan bogʻliq dastlabki savollarni ishlab chiqishda ochiq fikrlaydi. Dastlabki savollarga aniqlik kiritadi, asosiy muammoni yoki ustuvor masalalarni belgilaydi. Topshiriq savollariga taalluqliligi xilma-xil maʼlumotlarni tanlaydi. | Muammo, tadqiqot yoki topshiriqni tushunishning taʼsirchan darajasini koʻrsatadi. Oʻylangan tadqiqot savollarini yaratadi, topshiriq davomida olingan maʼlumotlarning chuqurligi, sifati va qiymatiga taʼsir qiluvchi savollarni diqqat bilan tuzadi. |
| Axborotni taqqoslaydi vamazmunli tasniflaydi. Axborotning toʻgʻriligi va dolzarbligini va dalillarning ishonchligini jiddiy xatolarsiz baholaydi. | Mavzuga mos keladigan turli xil maʼlumotlarni mos ravishda tanlaydi va toifalarga ajratadi. Har doim maʼlumotlarning toʻgʻriligi, aniqligi, dolzarbligi va toʻliqligiga shubha qiladi. Dalillarni toʻgʻri aniqlaydi va baholaydi. |
| Muammo, tadqiqot yoki topshiriq bilan sezilarli darajada bogʻliq boʻlgan munozaralar taklif qiladi Muammoni qanday hal qilish, yechim berish, savolga javob berishini boʻyicha mantiqiy xulosalarni taqdim etadi, chiqarilgan xulosalar uchun yetarli dalillarni taqdim etadi. Qarama-qarshi dalillarga aniq va ishonchli tarzda murojaat qiladi. | Kerakli hollarda induktiv va deduktiv mulohazalarni toʻliq tushunish va toʻgʻri qoʻllash orqali xulosalar chiqaradi. Muhim tafsilotlar, faktlar va tushunchalarni taqdim etib, ishonchli dalillar orqali natijalarni aniq ifodalaydi. Induktiv – maʼlumot yoki kuzatishlar va ulardan qilingan izohlar oʻrtasidagi aniq va mantiqiy aloqalarni aks ettiruvchi xulosalar chiqaradi. Deduktiv – umumiy qoidalar va tamoyillarni tushunishini namoyish etadi, nafaqat toʻgʻri, balki mavzu boʻyicha oʻziga xos fikr ham beradi. |
| Jarayonni toʻgʻri va aniq tahlil qiladi, muammoning yetarli miqdordagi ishonchli yechimlarini, savolga javoblarni yoki muammoni hal qilishning yondashuvlarini aniqlaydi. Samarasiz yechimlarni bartaraf etish va ishonchli yondashuvlarni tanlash uchun tegishli mezonlardan foydalanadi. | Deyarli har doim muammoning bir nechta noyob yechimlarini aniqlaydi, koʻpincha konvergent va divergent fikrlashdan foydalanadi. Muammoni chuqur tushunish va uni hal qilish yoʻllarini ishlab chiqish va namoyish qilish uchun taklif qilingan yechimlarni samarali, puxta sinovdan oʻtkazadi va baholaydi. Konvergent – muammoni hal qilish uchun muayyan variantni tanlash uchun aniq mantiqiy qadamlar ketma-ketligiga amal qiladi. Divergent – muammoni hal qilish uchun bir nechta variantlarni yaratadi. |
| Oʻz fikrlash, muhokama qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tez-tez tahlil qiladi va soʻroq ostiga qoʻyadi. Faoliyati davomida xatolarni tez aniqlaydi va tuzatadi. (Oʻquvchi muqobil nuqtai nazarlarni ochiq oʻrganadimi? Oʻquvchi ochiq fikr va moslashuvchanlikni namoyon qiladimi? Doimiy ravishda aniqlik va tushunishga intiladimi? Oʻquvchi aniqlik va puxtalikdan foydalanadimi? Oʻquvchi fikr yuritish uchun yetarli vaqt va kuch sarflaydimi? Vaqt oʻtishi bilan uning fikrlashi yaxshilanish sifatini baholaydimi? U tanqidiy fikrlash jarayonida qanday yordam kerakligini oʻylaydimi? –kabi savollarni soʻrash lozim). | Oʻz fikrlari va natijalarini shubha ostiga qoʻyadi yoki har doim oʻz kognitiv qobiliyatlarini tahlil qiladi va baholaydi. Juda mulohazali va deyarli har doim maʼlumot yoki jarayondagi xatolarni aniqlaydi. Bilimlardagi kamchiliklar, notoʻgʻri qarashlar, obyektivlik va ratsionallikni cheklaydigan boshqa omillarni toʻgʻri baholaydi. Faoliyati har doim xolis, adolatli, puxta va shaffof boʻladi. Imkon qadar xatolar va ularning sabablarini bartaraf etish yoki tuzatish uchun oqilona qarorlar qabul qiladi. |

4K KOMPETENSIYALARINI BAHOLASH UCHUN NAMUNAVIY TOPSHIRIQLAR

Topshiriqlar *ijtimoiy* yoki *ilmiy* sohaga oid bo'lishi va *yozma* yoki *og'zaki* tarzda javob berilishi mumkin. Topshiriq ko'lamiga ko'ra uni jamoa bo'lib (kollaboratsiya) yoki individual ishlashni tekshirish uchun berilishi mumkin. Topshiriqning o'zi esa kreativ va kritik fikrlash tamoyillari asosida tuzilgan muammo, masala, loyiha ishi, taqdimot qilish, yoki kichik tadqiqot ishi ko'rinishida berilishi mumkin va o'quvchi o'z javobini bayon qilishi mobaynida uning kommunikatsiya qobiliyati qanchalik rivojlanganini kuzatish mumkin bo'ladi. Shuningdek, o'quvchilar tomonidan berilgan javoblar *mavzu* va *topshiriqqa* mos bo'lishi, javoblar amalga oshirish *imkoni* mavjud bo'lishi, hatto hozir imkoni bo'lmasa ham yaqin kelajakda amalga oshishi taxmin qilinishi va inobatga olinishi zarur, aksincha joriy etishning va amalga oshirishning *iloji* bo'lmasa, hatto kelajakda ham, topshiriqqa mos javob emas deb qaralishi maqsadga muvofiq.

Masalan, o'quvchi hayvonlarni xonalarga taqsimlashning noyob usulini yaratish haqidagi savolga, hayvonlarning ko'zini skanerlash orqali xonaga kirishga ruxsat beradigan tizim yaratishni va joriy etishni taklif etgan bo'lsa, bu hozircha imkoni yo'q bo'lgan texnologiya yoki kashfiyot lekin kelajakda amalga oshirilishi mumkinligi inobatga olinishi zarur. Aksincha hayvonlarni xonalarga kiritishda ularni gapirishi orqali ovozi identifikatsiya qilish texnologiyasi taklif etilgan bo'lsa, bu javob hozir ham, kelajakda ham iloji yo'q deb qaraladi va o'quvchining javobi inobatga olinmasligi zarur.

4K topshiriqlari o'quvchining umumiy rivojlanishini kuzatish va ko'mak berish uchun mo'ljallanganligi bois, ularga ball yoki baho qo'yish tavsiya etilmaydi. Buning o'rniga topshiriqdan kelib chiqqan holda guruhlar nomlari asosida (*individual baholanishi lozim hollarda o'quvchi ism va sharifi yoziladi*) jadval tuzilib, 4K kompetensiyalari baholanayotgan kichik qobiliyat sohalari-ga darajalarning (*B, R, M, N*) *Boshlang'ich, Rivojlanayotgan, Malakali, Namunali*) bosh harflarini yozish orqali guruhdagi kamchiliklar aniqlanishi va ke-yinchalik ularni bartaraf etish ustida ishlash mumkin. Albatta, ushbu turdagi baholash jadvali tavsiyaviy xarakterda bo'lib, o'qituvchilar uni o'z ehtiyojlari-ga moslashtirishlari mumkin.

4K KOMPETENSIYALARINI BAHOLASH NAMUNAVIY KARTASI:

Guruh nomi: Qaldirg'och

A'zolar soni: 4ta (o'quvchilar ism-sharifi)

Fan/mavzu/topshiriq: Tabiiy fanlar/Atrof-olam/Qurg'oqchilik

Kompetensiya

| Kollaboratsiya | | Kommunikatsiya | | Kreativ fikrlash | | Kritik fikrlash | |
|--|----------|--|----------|--|----------|--|----------|
| Hamkorlik | B | Kommunikatsiya vositalaridan foydalanish | R | G'oya yaratish | N | Axborot talqini | M |
| Mas'uliyat va tashabbus | R | Tinglab tushunish | R | Kreativ mahsuldorlik | N | Tahlil yuritish | R |
| Moslashuvchanlik | M | Og'zaki taqdimot qilish | B | G'oyalarni baholash va takomillashtirish | M | Muhokama qurish | N |
| O'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish | R | O'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish | M | O'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish | R | Muammolarga yechim taklif etish | B |
| | | | | | | O'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish | B |

Topshiriq I

ISROFGARCHILIK

BMT ning Dunyo oziq-ovqat dasturi (World Food Programme) tashkilotining xabar berishicha, dunyo aholisining 10% hozirda ochlikdan aziyat chekmoqda, oziq-ovqat mahsulotlarining 17% esa chiqindiga chiqmoqda. Bu 2022-yil bo'yicha 1mlrd 50mln tonna mahsulot isrof bo'lganligini va ochlikdan aziyat chekayotganlar soni 780 million nafarni tashkil etadi degani. Jon boshiga hisoblaganda har bir inson yiliga o'rtacha 79kg mahsulotni chiqindiga tashlashini anglatadi.

Chiqindiga chiqarilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining 60%ini individual yoki uy xo'jaliklarda, 28%ini umumiy ovqatlanish shoxobchalarda, 12%ini esa do'konlarda sotilmay qolgan mahsulotlar ulushi tashkil etmoqda. (Ushbu statistik ma'lumot o'quvchilarning ta'lim olish yoshidan va sinf darajalaridan kelib chiqqan holda soddalashtirilishi tavsiya etiladi).

1-4-sinflar uchun savol:

(1) (Darsning dastlabki 5-10-minuti) Dunyoda oziq-ovqat yetishmasligi



natijasida ocharchilik yuz bermoqda ekan, sizningcha bunga nimalar sabab bo'lishi mumkin? **(2)** (*Darsning 10-25-minuti o'quvchilar guruhga bo'linadi va har bir guruhga dunyoning siyosiy xaritasi beriladi*) Dunyoning yana qayerlarida ocharchilik sodir bo'layotgan bo'lishi mumkin? **(3)** (*Darsning 25-40 minuti, jamoaviy poster/devoriy gazeta chizing va unda g'oyangizni aks ettiring*) Ocharchilikni qanday oldini olish mumkin deb o'ylaysiz?

Berilgan javoblar topshiriq va mavzuga oid bo'lishi, aks holda bildirilgan fikrlar inobatga olinmasligi zarur. **Mavzu:** oziq-ovqat mahsulotlari yetishmasligi va oqibatlari; **Topshiriq:** ocharchilik sabablari va uni oldini olish uchun g'oyalar taklif etish. Mavzulashtirilgan ehtimoliy javoblar quyidagicha:

- (1) *“Ocharchilikka hasharotlarning ekinlarga zarar yetkazishi, qurg'oqchilik, tabiiy ofatlar, mamlakatlar o'rtasidagi urushlar sabab bo'lishi”* kabi javoblar berilishi mumkin.
- (2) Davlatlarning geografik joylashuvidan yoki og'ir ahvoldagi mamlakatlardan xabardorligidan kelib chiqib javob berishi mumkin.
- (3) Davlatga davlat, davlatga xalqaro tashkilotlar yordami orqali yoki eng yaxshi va to'g'ri yechim insonlarning isrofgarchilikning oqibatlari haqidagi ogohliligini, xabardorligini oshirish yo'llarini taklif qilish orqali deb javob berishi mumkin.

Namuna:

| Guruh nomi: Qaldirg'och | | | | | | | |
|---|--|--|--|--|--|--|--|
| A'zolar soni: 4ta (o'quvchilar ism-sharifi) | | | | | | | |
| Fan/mavzu/topshiriq: Tabiiy fan/ Ocharchilikni bartaraf etish | | | | | | | |
| Kompetensiya | | | | | | | |
| Kollaboratsiya | | Kommunikatsiya | | Kreativ fikrlash | | Kritik fikrlash | |
| Hamkorlik | | Kommunikatsiya vositalaridan foydalanish | | G'oya yaratish | | Axborot talqini | |
| Mas'uliyat va tashabbus | | Tinglab tushunish | | Kreativ mahsuldorlik | | Tahlil yuritish | |
| Moslashuvchanlik | | Og'zaki taqdimot qilish | | G'oyalarni baholash va takomillashtirish | | Muammolarga yechim taklif etish | |
| O'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish | | O'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish | | O'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish | | O'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish | |

5-9-SINFLAR UCHUN SAVOL:

(1) Jamiyatimizdagi umumiy ovqatlanish shoxobchalari (restoran, kafelar) da oziq-ovqat mahsulotlari isrof qilinishiga ularning e'tibori qanday deb

o'ylaysiz (*individual javob*)? **(2)** Qanday qilib restoran va kafelardagi mahsulotlarning isrof bo'lishini oldini olish mumkin? Jamoangiz bilan maslahatlashgan holda javob bering (*jamoaviy javob, poster, devoriy gazeta chizish*). **(3)** Tengdoshlaringizdan isrofgarchilikni oldini olish bo'yicha kafe va restoranlar uchun mahsulotlar narxini qimmatlatish, ya'ni, ko'p mahsulot isrof qilayotgan kafe va restoranlar uchun oziq-ovqat mahsulotlarini qimmatroq sotish taklifi bildirilgan, xo'sh, siz bu fikrni qay darajada qo'llab-quvvatlaysiz yoki qanday qo'shimchalar kiritgan bo'lardingiz (*Jamoaviy javob*)?

Berilgan javoblar topshiriq va mavzuga oid bo'lishi, aks holda bildirilgan fikrlar inobatga olinmasligi zarur. **Mavzu:** ovqatlanish shoxobchalarida isrofgarchilik; **Topshiriq:** isrofgarchilikni oldini olish uchun g'oyalar taklif etish va ularni takomillashtirish.

Namuna:

| Guruh nomi: Bilimdonlar | | | | | | | |
|---|--|--|--|--|--|--|--|
| A'zolar soni: 4ta (o'quvchilar ism-sharifi) | | | | | | | |
| Fan/mavzu/topshiriq: Tabiiy fan/ Ocharchilikni bartaraf etish | | | | | | | |
| Kompetensiya | | | | | | | |
| Kollaboratsiya | | Kommunikatsiya | | Kreativ fikrlash | | Kritik fikrlash | |
| Hamkorlik | | Kommunikatsiya vositalaridan foydalanish | | G'oya yaratish | | Axborot talqini | |
| Mas'uliyat va tashabbus | | Tinglab tushunish | | Kreativ mahsuldorlik | | Tahlil yuritish | |
| Moslashuvchanlik | | Og'zaki taqdimot qilish | | G'oyalarni baholash va takomillashtirish | | Muhokama qurish | |
| O'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish | | O'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish | | O'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish | | Muammolarga yechim taklif etish | |
| | | | | | | O'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish | |

Mavzulashtirilgan ehtimoliy javoblar quyidagicha:

- (1) Oziq-ovqat mahsulotlarining isrof bo'lishiga kafe restoranlar e'tiborli yoki e'tiborsiz deb hukm qiladi va misollar keltirishi mumkin.
- (2) Kafe restoranlarga mahsulot sotishda narxlarni o'zgartirish, jarima solish, kam isrof qilayotgan shoxobchalarga imtiyozlar berish, ortib qolgan mahsulotlarni tarqatish (hayvonlarga ham), qo'shimcha aksiyalar e'lon qilish va sanab o'tilgan mavzulardan tashqari noodatiy topshiriqqa oid javoblar berilishi mumkin.
- (3) Dastlab bildirilgan g'oya tanqidiy muhokama qilinishi mumkin, masa-

lan, kim qayerdan, qancha mahsulot olayotganini aniqlash imkonsizdek yoki mahsulotlar qimmatlasa sotuvchilarga ziyon bo'lishi haqida fikrlar bildirilishi va so'ngra kafe restoranlarga nisbatan narxlarni o'zgartirishning boshqacha usuli yoki 2-topshiriqda bildirilgan g'oyalar asosida isrofgarchilikni oldini olishning mutlaqo boshqa usuli ham taklif qilinishi mumkin.

10-11-sinflar uchun savol: (1) Jamiyatimizdagi ovqatlanish shoxobchalarining isrofgarchilikka yo'l qo'yishiga nima sabab bo'lmoqda deb o'ylaysiz? (*individual javob*). **(2)** Jamoangiz bilan birgalikda qaysi kafe yoki restoran qancha miqdorda mahsulot isrof qilayotganini aniqlashning noodatiy usul(lar)ini taklif qiling (*jamoaviy javob, poster, devoriy gazeta chizish*). **(3)** Tengdoshlaringizdan ko'p miqdorda oziq-ovqat mahsulotlarini isrof qilayotgan oziq-ovqat shoxobchalariga nisbatan jarima qo'llash lozim degan fikr bildirildi, bu borada sizning fikringiz qanday, isrofgarchilikni oldini olish bo'yicha bildirilgan ushbu g'oyaga jamoangiz bilan qanday qo'shimchalar kiritgan bo'lardingiz (*jamoaviy javob*)?

Berilgan javoblar topshiriq va mavzuga oid bo'lishi, aks holda bildirilgan fikrlar inobatga olinmasligi zarur. **Mavzu:** ovqatlanish shoxobchalarida isrofgarchilik; **Topshiriq:** isrofgarchilikni oldini olish uchun g'oyalar taklif etish va ularni takomillashtirish.

Namuna:

Guruh nomi: Bilimdonlar

A'zolar soni: 4ta (o'quvchilar ism-sharifi)

Fan/mavzu/topshiriq: Tabiiy fan/ Ocharchilikni bartaraf etish

Kompetensiya

| Kollaboratsiya | | Kommunikatsiya | | Kreativ fikrlash | | Kritik fikrlash | |
|--|--|--|--|--|--|---------------------------------|--|
| Hamkorlik | | Kommunikatsiya vositalaridan foydalanish | | G'oya yaratish | | Axborot talqini | |
| Mas'uliyat va tashabbus | | Tinglab tushunish | | Kreativ mahsuldorlik | | Tahlil yuritish | |
| Moslashuvchanlik | | Og'zaki taqdimot qilish | | G'oyalarni baholash va takomillashtirish | | Muhokama qurish | |
| O'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish | | O'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish | | O'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish | | Muammolarga yechim taklif etish | |

Mavzulashtirilgan ehtimoliy javoblar quyidagicha:

- (1) Oziq-ovqat mahsulotlarini rejadagidan ko'p xarid qilinishi, kutilgan mijozlarning kamligi, to'y hashamlardagi ortiqcha dabdaba yoki sanab o'tilgan mavzulardan tashqari topshiriqqa mos noodatiy javoblar berilishi mumkin.
- (2) Isrofgarchilikni aniqlashda va nazoratda inson, texnika (skaner, hisoblash mashinalari va h.k) yoki sun'iy intellekt ishtirok etishi yoki hisob kitob qilishning noodatiy usulini taklif qilinishi mumkin.
- (3) Dastlab bildirilgan g'oya tanqidiy muhokama qilinishi mumkin, masalan, jarima qo'llash imkonsiz yoki samara bermasligi mumkinligi haqida fikrlar bildirilishi va so'ngra jarima qo'llashning boshqacha usuli yoki 2-topshiriqda bildirilgan g'oyalar asosida isrofgarchilikni oldini olishning mutlaqo boshqa usuli ham taklif qilinishi mumkin.

Topshiriq II

"HIKOYA"

Bobomning armiya haqidagi hikoyalari bizni doim qiziqtiradi. Bobom bizga aytib bergan hikoyalar haqiqatan sodir bo'lganmi yoki yo'qmi bunisi menga qorong'u. Lekin bu hikoyalar orasidan biri bizga juda yoqadi. Chunki bobom, odatda, bu hikoyani bir xil boshlaydi va oxirida esa biz o'zimiz uni yakunlaymiz.

Bobomning hikoyasi shunday boshlanadi: Mana, dabdurustdan jang ham boshlandi. Biz bir xaroba bino yoniga joylashganmiz. Biz tomonga esa dushman jangchilari vajohat bilan bostirib kelishayotgandi. Negadir ularni nishonga olish ilojisiz edi, o'zlari asirga olgan yosh bolalardan jonli qalqon sifatida foydalanib, o'zlariga bog'lab olishgandi. Shu sabab hech kim ularga qarata o'q uza olmas edi.

Natijada dushman bizni qurshab oldi, taslim bo'lishdan boshqa chora yo'q edi. Shunda, oldiga xuddi kengurudek yosh bolani ko'tarib bog'lab olgan dushman jangchilari boshlig'i bizning yonimizga kelib, bir nimalarni uqtira ketdi. Uning biron og'iz so'zini anglolmadim, lekin harakatlaridan taslim bo'lishimizni talab qilayotganga o'xshardi.

Shu payt bir askar jangarilar boshlig'iga tashlanib yuziga bir musht tushirdi va uning dovdirab qolganidan foydalanib tezda iplarni kesib bolakayni ozod qildi. Bolakayni ozod qiliboq jangarilar boshlig'ini quchoqlab birgalikda yerga yiqildi va...

Bu yog'iga hikoyani biz o'zimizcha davom ettiramiz.

1-4-sinflar uchun savol: (1) Nega dushman jangchilariga qarab o'q uzishning iloji yo'q edi? **(2)** Askarlar dushmanga taslim bo'lishdimi? / Dushman jangchilari boshlig'i kelib nimani talab qildi? **(3)** Hikoyani davom ettiring (*individual yoki guruh bo'lib*).

Namuna:

| Guruh nomi: Qaldirg'och | | | | | | | |
|--|--|--|--|--|--|--|--|
| A'zolar soni: 4ta (o'quvchilar ism-sharifi) | | | | | | | |
| Fan/mavzu/topshiriq: Ona tili, O'qish fani/ Hikoyani davom ettirish | | | | | | | |
| Kompetensiya | | | | | | | |
| Kollaboratsiya | | Kommunikatsiya | | Kreativ fikrlash | | Kritik fikrlash | |
| Hamkorlik | | Kommunikatsiya vositalaridan foydalanish | | G'oya yaratish | | Axborot talqini | |
| Mas'uliyat va tashabbus | | Tinglab tushunish | | Kreativ mahsuldorlik | | Tahlil yuritish | |
| Moslashuvchanlik | | Og'zaki taqdimot qilish | | G'oyalarni baholash va takomillashtirish | | Muhokama qurish | |
| O'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish | | O'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish | | O'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish | | Muammolarga yechim taklif etish | |
| | | | | | | O'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish | |

Berilgan javoblar topshiriq va mavzuga oid bo'lishi, aks holda bildirilgan fikrlar inobatga olinmasligi zarur. **Mavzu:** Armiyadagi hikoyalar, **Topshiriq:** savollarga javob berish va hikoyaning mantiqiy davomini yaratish.

Mavzulashtirilgan ehtimoliy javoblar quyidagicha:

- (1)** Chunki asir olingan bolalar jonli qalqon qilib jangchilar oldiga bog'langan edi.
- (2)** Askarlar dushmanga taslim bo'lishmadi / Dushmanlar boshlig'i taslim bo'lishni so'radi.

(3) Hikoyaning istalgan mantiqiy davomi bo'lishi mumkin.

5-9-sinflar uchun savol: (1) Hikoyadagi dushmanlar boshlig'ini asirga olgan askarning ismini nima deb qo'ygan bo'lardingiz? (2) Hikoyani mantiqan davom ettiring (*individual yoki guruh*).

Namuna:

| | | | |
|--|---|---|---|
| Guruh nomi: Bilimdon | | | |
| A'zolar soni: 4ta (o'quvchilar ism-sharifi) | | | |
| Fan/mavzu/topshiriq: Ona tili, O'qish fani/ Hikoyani davom ettirish | | | |
| Kompetensiya | | | |
| Kollaboratsiya | Kommunikatsiya | Kreativ fikrlash | Kritik fikrlash |
| <i>Hamkorlik</i> | <i>Kommunikatsiya vositalaridan foydalanish</i> | <i>G'oya yaratish</i> | <i>Axborot talqini</i> |
| <i>Mas'uliyat va tashabbus</i> | <i>Tinglab tushunish</i> | <i>Kreativ mahsuldorlik</i> | <i>Tahlil yuritish</i> |
| <i>Moslashuvchanlik</i> | <i>Og'zaki taqdimot qilish</i> | <i>G'oyalarni baholash va takomillashtirish</i> | <i>Muhokama qurish</i> |
| <i>O'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish</i> | <i>O'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish</i> | <i>O'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish</i> | <i>Muammolarga yechim taklif etish</i> |
| | | | <i>O'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish</i> |

Berilgan javoblar topshiriq va mavzuga oid bo'lishi, aks holda bildirilgan fikrlar inobatga olinmasligi zarur. **Mavzu:** Urushdagi holatga aloqador, **Topshiriq:** hikoyaning mantiqiy davomini yaratish.

Mavzulashtirilgan ehtimoliy javoblar quyidagicha:

- (1) O'quvchi askarning ismini vaziyat bilan mantiqan bog'lab qo'yishi mumkin masalan, qahramonlik, mehribonlik, vatanparvarlik, kelajakka umid kabi sifatlarni aks ettiruvchi ism bo'lishi mumkin yoki biror qarindoshi, do'stini eslab vaziyatga bog'lab ularning ismini qo'yishi mumkin.
- (2) Hikoyani mantiqan, barcha dushmanlarni halok etuvchi yoki barchani qutqaruvchi yechim tarzida davom ettirish, tushda sodir bo'layotgan voqea sifatida talqin qilish yoki biror g'ayri oddiy qobiliyat qo'shish orqali hikoyani davom ettirish mumkin. Sanab o'tilgan mavzulardan

tashqari hikoyani davom ettirish bo'yicha mavzu va topshiriqqa oid no-odatiy va noyob g'oyalar ham bildirilishi mumkin.

10-11-sinflar uchun savol: (1) Tengdoshingiz Hikoyadagi dushmanlar boshlig'ini asirga olgan askarning ismini Umid deb atadi, siz nima deb o'ylaysiz, bu ism unga mosmi yoki o'zgartirgan bo'larmidingiz? **(2)** Hikoyani mantiqan davom ettiring (*individual yoki jamoaviy javob*).

Namuna:

| | | | | | | | |
|---|--|--|--|--|--|--|--|
| Guruh nomi: Bilimdon | | | | | | | |
| A'zolar soni: 4ta (o'quvchilar ism sharifi) | | | | | | | |
| Fan/mavzu/topshiriq: Ona tili, O'qish fani/ Hikoyani davom ettirish | | | | | | | |
| Kompetensiya | | | | | | | |
| Kollaboratsiya | | Kommunikatsiya | | Kreativ fikrlash | | Kritik fikrlash | |
| Hamkorlik | | Kommunikatsiya vositalaridan foydalanish | | G'oya yaratish | | Axborot talqini | |
| Mas'uliyat va tashabbus | | Tinglab tushunish | | Kreativ mahsuldorlik | | Tahlil yuritish | |
| Moslashuvchanlik | | Og'zaki taqdimot qilish | | G'oyalarni baholash va takomillashtirish | | Muhokama qurish | |
| O'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish | | O'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish | | O'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish | | Muammolarga yechim taklif etish | |
| | | | | | | O'z-o'zini nazorat qilish/aks ettirish | |

Berilgan javoblar topshiriq va mavzuga oid bo'lishi, aks holda bildirilgan fikrlar inobatga olinmasligi zarur. **Mavzu:** Urushdagi holatga aloqador, **Topshiriq:** hikoyani mantiqiy davomini yaratish.

Mavzulashtirilgan ehtimoliy javoblar quyidagicha:

- (1) Dastlabki bildirilgan ismni yoqlashi yoki tanqid qilishi mumkin, yoki o'zi vaziyatga mos, mutlaqo boshqa qahramonlik, mehribonlik, vatanparvarlik, kelajakka umid kabi sifatlarni aks ettiruvchi ism berishi mumkin.
- (2) Hikoyani mantiqan, barcha dushmanlarni halok etuvchi yoki barchani qutqaruvchi yechim tarzida davom ettirish, tushda sodir bo'layotgan voqea sifatida talqin qilishi, biror g'ayrioddiy qobiliyat qo'shish orqali hikoyani davom ettirish mumkin yoki bu mavzulardan tashqari hikoya-

ni davom ettirish bo'yicha tegishli noodatiy va noyob g'oyalar ham bildirilishi mumkin.

XULOSA

Yuqorida qayd etilganlardan xulosa qiladigan bo'lsak, formativ baholash joriy ta'lim tizimida mavjud emas, hozirga qadar tajriba-sinov tariqasida sanoqli maktablarga yangi (aslida dunyo hamjamiyatida allaqachongi) baholash tizimini sinab ko'rmoqda. Keyinchalik alohida formativ va summativ baholash tizimi joriy qilinadigan taqdirda 4K rubrikalaridan foydalanish, o'quvchilar faoliyatini an'anaviy baholash tizimi bilan solishtirilganda tubdan farq qiladi. Zero, hozirgi holatda ham yuqorida sanab o'tilgan o'quvchining qobiliyatlarini baholash, kuzatib borish, yo'naltirishda mazkur 4K rubrikalari tayyor kalit bo'lib xizmat qiladi.

4K rubrikalaridan samarali foydalanishda o'quvchilarga ijtimoiy yoki ilmiy jihatdan yondashish mumkin bo'lgan yozma yoki og'zaki ifoda qilish talab etiladigan, shuningdek, topshiriq qamroviga ko'ra individual yoki jamoaviy ishlash imkonini beruvchi topshiriq berish lozim. Agarda, ushbu jihatlarda e'tiborga olinmasa, faqat kichik bir mavzu doirasida an'anaviy tarzda topshiriq yoki savol so'raladigan bo'lsa, 4K elementlarini yaxlit baholashning imkoni bo'lmasligi mumkin. Masalan, hisob-kitobda yozma yoki og'zaki ifoda etishni talab etiladigan ijtimoiy yoki ilmiy sohadagi biror muammoni fan kesimida mavzulashtirib, topshiriq qilib berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda o'quvchi zarur hollarda qanday qilib jamoada yoki individual ishlashi mumkinligini, bir necha urinishlar bilan bo'lsa ham turli xil yondashuvlarni amalga oshirish orqali yechim taklif qilish, ilmiy yoki ijtimoiy muammoni tahlil qilish orqali o'z mulohazalarini ilgari surishi va nihoyat uni og'zaki yoki yozma tarzda bayon qilish tamoyillarini o'zlashtiradi.

Mamlakatimizda o'quvchilarning yaxlit rivojlanishi 4K modeli orqali baholash bo'yicha hali sezilarli ishlar amalga oshirilganicha yo'q. Darsliklarni ishlab chiqishda 4K ni inobatga olish tendensiyasining kiritilganiga hali ko'p vaqt bo'lmadi. Zero, bu borada aniq belgilangan tamoyillar mavjud bo'lmasa-

da, jahon tajribasidan foydalangan holda 4K rubrikalaridan foydalanib o'qitish va ta'lim olishda formativ baholashni qo'llab-quvvatlash mumkin.

Yuqorida tavsiya etilgan 4K rubrikalari ham dunyo tajribasidan kelib chiqqan holda tarjima qilindi. 4K ga oid rubrikalar bisyorligi inobatga olingan holda, o'qituvchilar tomonidan eng ko'p foydalaniladigan rubrikalar tanlab olindi va bir-biriga solishtirilgan holda moslashtirildi. O'qituvchilar va boshqa soha mutaxassislari mazkur tavsiyaviy rubrikalardan foydalanish bilan bir qatorda, berilgan namunaviy topshiriqlar asosida o'z soha va fani doirasida kichik topshiriqlar ishlab chiqishlari mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Educational Research and Innovation Fostering Students' Creativity and Critical Thinking What it means in schools. OECD Publishing. 2019-yil.
2. Сборник эталонных заданий. Креативное мышлению, выпуск 2. Г. С. Ковалёва, О. Б. Логинова. Москва, Санкт-Петербург "Просвещение" 2021-yil.
3. Kreativ fikrlashni baholash. A. Ismailov va boshqalar. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. 2021-yil.

INTERNET MANBALAR

1. U. Jabborov, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati: <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/barchasi-maktab-partasidan-boshlanadi-boshlangich-sinfda-4k-modeli-zamonaviy-talimga-innovation-yondashuv>
2. <https://www.indeed.com/career-advice/career-development/domains-of-learning>
3. What are the 4 C's of 21st-century learning skills? | Torrens University.
4. <https://nearpod.com/blog/4cs-education/>
5. https://www.northsalemschools.org/cms/lib/NY50000167/Centricity/Domain/34/030316_NSalemCreatCritRubric.pdf
6. <https://newsroom.unl.edu/announce/csmce/5344/29195>
7. <https://www.edutopia.org/assessment-guide-rubrics#:~:text=Rubrics%20are%20multidimensional%20sets%20of,the%20same%20score%20or%20grade>
8. <https://www.edx.org/search?q=crwative+and+critical+thinking>

4K KO'NIKMALARINI BAHOLASH RUBRIKALARI

USLUBIY QO'LLANMA

Muharrir Sh. Abdiraimov
Dizayner I. Salohitdinov

“PAGES PRINT” nashriyoti

Bosishga ruxsat etildi: 07.08.2024

“Cambria” garniturası. Qog'oz bichimi: 60×84 1/8.

Adadi 200 nusxa. Toshkent shahri,
Olmozor tumani, Chimboy ko'chasi, 8-uy.

“PAGES PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Olmozor tumani, Chimboy ko'chasi, 8-uy.